

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**

**A.QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT  
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**“O'ZBEKISTON TARIXI” KAFEDRASI**

“Himoya qilishga ruxsat beraman”

Tarix fakul'teti dekani

\_\_\_\_\_ dots.S.G'oziyev  
“\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2011 y.

5140600-tarix yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun

**“Amir Temur shaxsini o'rganishda Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”  
asarining roli va ahamiyati” mavzusida bajargan**

## ***BITIRUV MALAKAVIY ISHI***

Bajaruvchi: Normurodov G'anijon

Ilmiy rahbar: t.f.n.dots. Pardayev A.

**Ishni himoyaga tavsiya etaman:**

**t.f.n.dots.A.Pardayev**

BMI “O'zbekiston tarixi” yig'ilishi qarori bilan  
(Qaror №13. 28.05.2011 y) himoyaga tavsiya  
etilgan.

**Kafedra mudiri:**

**t.f.n.dots.A.Pardayev**

**Jizzax – 2011**

**Mavzu: Amir Temur shaxsini o'rganishda Sharofiddin Ali Yazdiyning  
“Zafarnoma” asarining roli va ahamiyati**

**R e j a:**

**Kirish:**

**I-BOB. Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarining yaratilish va  
undagi tarixiy voqealar bayoni**

- 1.1. Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarining yaratilishi.
- 1.2. Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida tarixiy voqealar bayoni.

**II-BOB. Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida Amir Temur  
faoliyatining yoritilishi**

- 2.1. Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida Amir Temurning Movarounnahrni birlashtirish va xavfsizligini ta'minlash uchun ko'rashi bayoni.
- 2.2. “Zafarnoma” asarida qo'shni mamlakat va o'lkalarining Amir Temur davlati tarkibiga kiritilishi bayoni.

**III-Bob: “Amir Temur shaxsini o'rganishda Sharofiddin Ali Yazdiyning  
“Zafarnoma” asarining roli va ahamiyati” mavzusini tarix darslarida  
o'rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarda foydalanish usullari**

- 3.1. Mavzuni o'tishda noan'anaviy usullardan foydalanish.

**Xulosa:**

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

**Mundarija:**

## Kirish

O'zbekiston mustaqillikka erishgan kundan boshlab tariximizga bo'lgan munosabat tubdan o'zgarib, sovet davrida noto'g'ri baho berilgan yoki yuzaki ko'rib chiqilgan masalalarga jiddiy ilmiy yondashuv kuchaydi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1998 yil 27 iyuldagi "UzRFA tarix instituti faoliyatini takomillashtirish haqidagi" qaroridan so'ng haqqoniy tarixni yaratish, bu jarayonda birlamchi manbalarga asosiy e'tibor berish, qo'yilgan muammoni soha mutaxassislari tomonidan xal etilishi, mavjud muammolar yechimini ilmiy asoslash borasida anchagina ishlar amalga oshirildi. Shunga qaramasdan, uzoq o'tmishlarga borib taqaluvchi o'lkan tariximizda yechimini kutayotgan muammolar talaygina. Ana shunday fundamental masalalardan biri - o'zbek xalqi davlatchiligi tarixidir.

O'zbek davlatchiligi tarixida sohibqiron Amir Temur va temuriylar davri tarixi muhim ahamiyatga egadir. Buning sababi sohibqiron Amir Temur davlatning boshqaruv, tashqi va ichki siyosat, obodonchilik sohasida boshqa davlatlarga o'rnak bo'ladigan ishlarni amalga oshirganlar<sup>1</sup>.

Jumladan, o'tmish sarhadlariga nazar tashlar ekanmiz, Amir Temur bobomizning mohir sarkarda, buyuk bunyodkor, qudratli hukumdorligini zslab o'tmay ilojimiz yo'q. Ko'p yillik hukumronlik qolgan bu sulola bir qancha me'moriy obidalar majmualarini o'z yurtida va boshqa davlatlarda bunyod qildi. Sohibqiron Temur "Temur tuzuk"lari asarida "Amir etdimki katta-kichik har bir shahar, har bir qishloqda masjid, Madrasa, xonaqox bog' rog'lar bino kilunsunlar, faqir miskinlarga langarxona (musofurxona) solsunlar, kasallar uchun shifoxona qurilsinlar va ularda ishlash uchun tabiblar tayinlansin, har bir shaharda dorul - amorat (hukumdor saroyi) va dorul - adolat (adolat capoyi) qursunlar" deb amr qiladi. Sohibqiron Temur

---

<sup>1</sup> A.Muxammadjonov. O'zbekiston tarixi. T., "O'qituvchi", 1994, 95-bet.

davrida bunyodkorlik davlat siyosati darajasida ko'tarilgan deyishimiz mumkin. Dastavval Temur saltanati poytaxti qilib belgilagan shahar Samarqandni dunyoning eng obod shahriga aylantirdi va ulutvorligini ko'rsatish uchun atrofida Damashq, Bog'dod, Misr, Sheroz Sultoniya kabi dunyoning eng mashhur shaharlarining nomlari bilan atalgan qishloqlar bunyod ettirgan. Shahar atrofida Oxanin, Shayxzoda, Chorsu, Qorizgoh, Suzangaron, Feruza kabi yirik darvozalar bunyod etdi. Ispan elchisi Rui Gonsalis de Klavixo kundaligida "Gulbog', Bog'i Dilkusho, Bog'i Nav kabi bog'lar va boshqa bog'larning nomlari, Samarqanddagi Ko'ksaroy, Amir Temur Jome masjidi, Bibixonim madrasasi, masjidi Kusam ibn Abbos memoriy majmui, Amir Temur maqbarasi, Shahrisabzda Dorul tilovat majmui va Oq saroy, Turkistondagi Xoa Ahmad Yassaviy xonaqox maqbara"larini zavq - shavq bilan qalam tebratar ekan, xayratda qolib yevropada bunyodkorlik bu darajada revojlanmaganligini eslab o'tadi.

Sharofiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asari ham Sohibqiron Amir Temurning xokimiyat tepasiga kelishi, Samarqand va mamlakatning boshqa hududlaridagi obodonchilik ishlari, mamlakat xavfsizligi yo'lida olib borgan ko'p yillik harbiy yurishlari haqidadir.

Sohibqironning me'moriy bunyodkorligi sohasidagi beqiyos ishlarini Turkiston, Samarqand, Kesh, Buxoro, Toshkent kabi shaharlarda hozirgacha saqlanib qolganligini noyob va nodir obidalar misolida ko'rishimiz mumkin. Ya'ni Temurnylar davridagi bunday o'lkan bunyodkorlik jarayoni natijasi o'laroq keng ko'lamda me'morchilik mujizalari yaratilgani fikrimiz dalilidir. Ush davrda Temuriylar tarixini yoritib bizga asl manbani yozib qoldirgan Shaarofiddin Ali Yazdiy shunday deydilar: "Sohibqiron har yerdakim imoratqa qobil yer ko'rsa erdi ul yerda albatta bir imorat solur erdi" deganlar. Buningdek ma'lumotdan ko'rinib turibdiki Sohibqiron doim me'morchilik ishlarini keng ommada rivojlantirgan.

Sharafuddin Ali Yazdiy 1454, Yazd shahri yaqinidagi Taft qishlog'i temuriylar davri mashhur tarixnavisi 1414—35 yillar mobaynida Shohruxning o'g'li, Fors o'lkasi hokimi Ibrohim Mirzo xizmatida bo'ladi va uning topshirig'i asosida mashhur «Zafarnoma» asarini yozadi. Ibrohim Mirzo vafotidan so'ng Sharafuddin Ali Yazdiy Sultoniya, Ray va Qum viloyatlari hokimi bo'lgan Shohruxning nabirasi Sulton Muhammad hizmatiga o'tadi. 1445—46 y. Muhammad Sultonning markaziy hukumatga qilgan isyoniga aralashib qolgan Sharafuddin Ali Yazdiy Ulug'bek o'g'li Abdulpatif tomonidan jazodan saqlab qolinadi va Xirotda yuboriladi. Kamoliddin Abdulvosid an-Nizomiyning «Maqomoti mavlaviy Jomiy» asarida keltirilishicha, Sharafuddin Ali Yazdiy Xirotda kelib, Jomiyning suhbatida bo'lgan. Shohrux vafotidan so'ng (1447 y.) o'z vatani Taftga kaytib keladi va xonaqoxga joylashib, umrining oxirigacha o'sha yerda yashaydi.

Navoiy «Majolis un-nafois» asarida yozishicha, 6 yoshida «Shohrux Sulton buzug'lig'ida» (ya'ni Shohrux vafotidan so'ng mamlakatda yuz bergan nizolar chog'ida) katta jamoat bilan Xurosondan Iroqqa ketayotganda, Taftda Sharafuddin Ali Yazdiy yashagan xonaqoxda bo'lib, uni qurgan. Navoiy ushbu asarida Sharafuddin Ali Yazdiyning bilimdonligiga yuqori baho berib: «Mavlononing sohib kamolligi olam ahli qoshida musallamdur», deb yozgan. Shundan keyingi yillarda, ya'ni 1452 yil tarixchi Abdurazzoq Samarqandiy ham Taftda Sharafuddin Ali Yazdiy bilan uchrashib suhbatlashgan. Mo'g'uliston xoni Yunusxon yoshligida Shohrux topshirig'iga ko'ra, uzoq yillar Sherozda Sharafuddin Ali Yazdiy tarbiyasida bo'lgan va sulton Abu Sayd uni olib kelib, Mo'g'ulistonga xon etib tayinlagan.

Sharafuddin Ali Yazdiy adabiyot va til uslubi, she'riyat nazariyasi, nujum ilmi, tarix musiqa, tasavvufning nazariy masalalari bo'yicha bir nechta asarlar yozgan. «Sharaf» taxallusi bilan she'r bitgani ham ma'lum. Shuningdek,

Sharafuddin Ali Yazdiyning «Hullali mutarraz dar muammo va lugʻaz» («Muammo va topishmoqlar borasida bezakli noma»); «Muntaxabi xulal» (mazkur asarning qiskartirilgan bayoni); «Mavotin yo manozirdar muammo» («Muammo fanida joy va manzaralar»); «Kunh uzzod dar ilmi vakfi aʼdod» («Adadlar muvofiqligi ilmida hakikat chuqqisi»); «Al-kitob fi ilm il-usturlobi» («Usturlob ilmi boʻyicha kitob»); «Devoni Sharaf Yazdiy» («Sharaf Yazdiyning devoni»); «Xaqoyiq at-taxlil» («Taxlil, yaʼni «Lo ilaxd illallox»ning haqiqatlari); «Sharhi-Qasidai Burda» («Qasidai Burda»ning sharhi); «Sharqi Asomoi Alloh» («Alloh ismlari» sharhi); «Tuxfat ul-faqir va xddiyat ul-xakir» («Faqirning tuhfasiyu, xayirning xadyasi»); «Munshaot» (Xatlar toʻplami); Amir Temur tarixiga bagʻishlangan sheʼriy asarlari maʼlum.

## **I-BOB. Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarining yaratilish va undagi tarixiy voqealar bayoni**

### **1.1.Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarining yaratilishi.**

Yaqin yillargacha buyuk bobomiz Amir Temur haqida kitob yozish u yoqda tursin, hatto nomini aytishdayoq qoʻrqa-pisa olazarak boʻlinardi. Mustaqillikka erishishimiz sharofati bilan ahvol butunlay oʻzgardi. Bugun poytaxtimizning markaziy hiyobonini bobomizning haykali bezab turibdi. 1996 yilda Amir Temurning 660 yilligini nishonlash haqida Prezidentimizning Farmoni eʼlon qilindi. Unda «Jahon tarixidagi buyuk siymolardan biri, Markaziy Osiyo halqlarining iqtisodiy, siyosiy va maʼnaviy taraqqiyotiga oʻlkan hissa qoʻshgan ulugʻ davlat arbobi va sarkarda, fan va madaniyat homiysi sohibqiron Amir Temur» degan viqorli iboralar bor. Bu soʻzlar, biz, koʻp yillardan beri orzu qilgan kunlar kelganidan dalolat beradi. Oʻsha Farmonning bandlarida Oʻzbekiston nashriyotlari Amir Temur va

uning davri fani, madaniyati va san'atiga oid qulyozma va yangi asarlarni, shu jumladan, chet ellarda nashr etilgan adabiyotlardan namunalarni nashr etishni uz rejasiga kiritishi havola etilgan bo'lib, bu bizga katta mas'uliyat yuklaydi. Tangri taolaga ming qatla shukurki, shu buyuk voqea tufayli kuchimizga kuch qo'shilib, ushbu kitobni nashrga tayyorladik.

Amir sohibqironning hayoti va faoliyati Markaziy Osiyo halqlarining tarixida tom ma'noda inqilobiy o'zgarish yasadi. Bu o'zgarishlar shu qadar o'lgan tarixiy ahamiyatga molik bo'ldiki, mana bir necha asrdiki, dunyo olimlari tomonidan Temur va Temuriylar davri turli fanlar nuqtai nazaridan o'rganilayapti. Temur va Temuriylar davri tarixi, eng avvalo, ularning o'ziga zamondosh bo'lgan muarrixlar asarlarida aks ettirildi. Bular esa uz galida Temurning harbiy yurishlarida ishtirok etgan kishilar bo'lgan yoki ular shunday shohidlarning kundalik yozuvlaridan va esdaliklaridan foydalanganlar. Ana shunday kishilardan eng birinchisi G'iyosiddin Ali ibn Jamol Yazdiy «Hindistonning gazavoti ruznoma»sini 1399 va 1403 yillar orasida yozib, Temurga taqdim etgan. Lekin asar voqealarning tavsifi nuqtai nazaridan haqqoniy bo'lsa ham, haddan tashqari xushomadgo'ylik ruhida yozilgan bo'lib, Amirga yoqmagan. Biroq, bu asar keyinroq Nizomiddin Shomiy va Sharafuddin Ali Yazdiy asarlariga asos vazifasini bajargan. Bu asarning matni nashr etilgan va ruscha tarjimasi ham chop etilgan<sup>2</sup>.

G'iyosiddinning asari yoqmagan sababli Amir Temur hijriy 804 melodiy 1401-02 yili o'zi bilan 1392 yildan beri harbiy yurishlarida ishtirok etgan Nizomiddin Shomiyga sodda til bilan va saroy solnomalariga asoslanib, uning tarixini yozishni buyuradi. Nizomiddin 1404 yil yozida asarini yozib tugatib, Amir sohibqironga taqdim etadi va vataniga qaytishga ruxsat oladi.

Birinchi bo'lib Nizomiddin o'z asarini «Zafarnoma» deb ataydi. Unda xijriy 806 yil oxirigacha, ya'ni melodiy 1404 yilning iyuligacha bo'lgan

---

<sup>2</sup> Temur tuzuklari. Forschadan Alixon Sog'unii va Habibullaxon Karamatov tarjimasi. T., G'.G'ulom, 1991, 55-bet.

voqealar aks ettirilgan. Amir Temur hayotining qolgan qariyb sakkiz oyiga taalluqli voqealar va vafotidan keyingi oylardagi hodisalar unga kirmagan. Demak, shu nuqtai nazardan asarni mukammal deb bo'lmaydi.

Ana shunday eng mukammal asarni Sharafuddin Ali Yazdiy yaratdi. Sharafuddin ham G'iyosiddin Ali kabi Eron zamindagi Fors viloyatining shimolidagi Yazd shahrida tug'ilgan. U obdon zukkoligi va donoligi bilan Temuriylarning diqqatini o'ziga jalb qiladi. Sharafuddin bir necha yil Xirotda Shohrux mirzoning hamda Forsda uning kichik o'g'li Ibrohim Sultonning saroyida hizmat qiladi. U she'riyat, falsafa va ilmi nujumdan obdon habardor olim edi. «Sharaf» taxallusi bilan she'rlar bitar edi. Sharafuddin o'z hayotida bajargan ikki sharaflı ishining biri shu ediki, Ulug'bek harbiy yurishlarining birida hijriy 832 melodiy 1428-29 yili yosh mo'g'ul xoni Yunusxonni asir qilganida Shohruxning buyrug'i bilan Sharafuddin asir xonning ustozı etib tayinlanadi. Sharafuddin bir muddat Yunusxon bilan Yazdda yashab, uning tarbiyasi bilan shug'ullanadi va aftidan, o'z bilimlaridan unga ancha singdira olgan. Ana shu yosh xon keyinchalik Hindistonda uch asrdan ko'proq hukm surgan Temuriylar sulolasining asoschisi Zahiriddin Muhammad Boburning ona tarafidan bo'lajak bobosi edi<sup>3</sup>.

Sharafuddin Ali Yazdiyning ikkinchi va asosiy sharaflı ishi — uning o'z «Zafarnoma»sini yaratishidir. Sharafuddin asarining debochasida ko'rsatishicha, uni hijriy 828 yili melodiy 1424-25 yozib tugatgan. Shu tarix Abdurazzoq Samarqandiyning «Matlai sa'dayi va majmai bahrayn» asarida ham ko'rsatilgan. Asar Amirning mufasssal va shaxzoda Xalil Sultonning qisqacha tarixidan iborat bo'lib, zamondoshlariga o'ta manzur bo'lgan. Bu asarga asos bo'lgan ilk nusxani Temurning saroy kundaliklari va bonqa manbalar asosida va saroy kotiblarining yordamida Ibrohim Sulton yozgan. Bu nusxani qayta ishlab va yana boshqa manbalardan foydalanib Sharafuddin

---

<sup>3</sup> A.Muxammadjonov. O'zbekiston tarixi. T., "O'qituvchi", 1994, 84-bet.



uz «Zafarnoma»sini yaratgan. Muallif o'z asarini birinchi maqola deb ataydi va Shohruxga atalgan ikkinchi maqola hamda Ibrohim Sultonga atalgan uchinchi maqolani yozishni ham rejalashtirib qo'yadi. Bu hol matnda ham o'z aksini topgan va o'quvchi quyida buning guvohi bo'ladi.

Asar turk xonlarining shajarasi va Chingizxon tarixiga bag'ishlangan o'lkan (82 varaq) Muqaddima bilan boshlangan. Asar ko'pdan-ko'p she'rlar bilan ziynatlangan bo'lib, ular Sharafuddinning shaxsiy ijodi ekanligi shubhasiz. Shunisi diqqatga sazovorki, Sharafuddinning «yordami» bilan Temur ham, uning farzandlari va lashkarboshilari ham ko'pincha ba'zi voqealar munosabati bilan forsiy she'rlar aytadilar. Sharafuddin ba'zi ruhiy kechinmalarini ham lirik chekinish sifatida uzundan-uzoq she'rlar bilan ifodalaydi. Shunday joylarda muallif o'quvchining diqqati va vaqtini suyiste'mol qilayotgani seziladi. Chunki bunday sahifalarda harbiy, siyosiy voqealarning rivojlanishi sustlashib ketadi, yoki umuman to'xtaydi. Lekin talqin uslubi qandayligidan qat'i nazar Sharafuddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma»si Amir Temur tarixiga bag'ishlangan asarlarning eng haqiqatga yaqini va eng mukammali hisoblanadi. Shuning uchun ham asar yozilganidan beri utgan besh yarim asrdan ortiq vaqt ichida u qayta-qayta ko'chirilgan, turli Sharq va Fapb tillariga ham to'la, ham qisman tarjima qilingan va bir necha marta nashr etilgan. Shunday nashrlarning eng mukammali 1972 yili A.O'rinboyev tomonidan chop etilgan nusxaviy tanqidiy matn hisoblanadi.

Eslatilgan tarjimalar orasida Muhammad Ali ibn Darvesh Ali al-Buxoriy tomonidan Shayboniylar sulolasidan xon Kuchkunchixon (1510—1529) farmoniga ko'ra 1519 yilda bajarilgan o'zbekcha tarjima muhim urin to'tadi. Asar eski o'zbekchaga yana ikki marta tarjima etilgan bo'lib, bularning birinchisi noma'lum tarjimon tomonidan Yaroqbiy Qo'ng'iro't degan shaxsning buyrug'iga ko'ra 1550 yili bajarilgan. Oxirgi o'zbekcha tarjimani 1826 yili Shermuhammad Munisning tavsiyasi bilan Xivada

Xudoyberdi ibn Hushmuhammad Sufi Xevaqqiy bajargan bo'lib, bu ancha qisqartirilgan tarjimadir.

Muhammad Alining o'zbekcha tarjimasiga kelsak, bu, bizningcha, tom ma'noda o'zbek mumtoz nasrining ilk buyuk obidalaridan biridir. Biz quyida ko'ramizki, bu asarning nafaqat tarjimasi, balki Sharafuddin she'riyatiga taallukli ayrim yerlarda qayta ishlanishi ham deyilmog'i kerak

Muhammad Ali tarjimasi yagona nodir nusxada mavjud bo'lib, u Istanbulda, Nuri Usmoniya kutubxonasida 3268 raqam bilan saqlanadi. Bu yerga u turk sultoni Mustafo uchinchi tomonidan hijriy 1171 melodiy 1757 yili vaqf qilingan. Demak, qo'lyozma u yerga oldinroq borib qolgan. Qo'lyozma hali teran o'rganilmagan. U haqda faqat venger sharqshunosi Yanosh Ekman 1964 yili qisqagina ma'lumot keltirgan va vatandoshimiz Miyon Buzruk 1927 yili «Maorif va o'qituvchi» jurnalida xabar bergan. Biroq, qulyozma sahifalarida bir turk o'quvchisining lotin harfi bilan hozirgi turk tilida yozgan ayrim so'zlari va qator belgilari ham bor. Shunga ko'ra bu qo'lyozma haqida turkcha biror tadqiqot bo'lsa kerak deb taxmin qilish mumkin. Lekin o'sha "turk uquvchisi" aslida Yanosh Ekman bo'lganligi ehtimoli ham tutildi.

Qo'lyozma asl matni sahifalari raqamlanmagan. Lekin o'sha noma'lum turk, asar bilan qisqa fursatda tanishibdi shekilli, uni raqamlaganiga ko'ra ko'lyozma 319 varaq bo'lgan.

«Qisqa fursatda tanishish» deyishimizga sabab shuki, asarni nashrga tayyorlash jarayonida aniqladikki, uning ko'plab varaqlarini jildlanish paytida o'rni almashgan ekan. Bu varaqlarni tartibi bilan o'rniga qo'yishda ularning hammasini «Zafarnoma»ning forscha matni bilan solishtirishga to'g'ri keldi. Qo'lyozmaning 46-varaqqacha «turk» o'quvchi qo'ygan raqamlar mazmun bayoni bilan mos keladi. So'ng asar jildidagi «turk»ning varaq raqamlarida nomoslik kelib chiqadi, 47-varakdan to 65-varaqqacha,

ya'ni 19 varaqdagi hodisalar asarning ancha keyingi qismiga tegishli. Shuning uchun orqadagi varaqlarni oldinga olib, varaqlarni boshqatdan qirqib, yamash va raqamlashga to'g'ri keldi. Xuddi shuningdek 119, 120, 134, 157, 164-varaqlarni tarjima jarayonida «topib, joyiga qo'yildi». Bunday varaq «siljishlari» asarning keyingi qismida ham ko'p. Umuman olganda, hammasi bo'lib 35 varaqning o'rni almashgan bo'lib, ularni forsha matn bilan solishtirib, o'z joyiga quydik.<sup>4</sup>

Endi asarning tarkibi va mazmuniga kelsak, Muhammad Ali «Zafarnoma»ning forsha matnidagi turk-mo'g'ul xalqlarining kelib chiqish haqidagi 82 varaq muqaddimani tushirib qoldirgan. Bundan tashqari bu muallif Sharafuddinining uzundan-uzun mulohaza va she'rlarini ham atayin tushirib qoldiradi.

Muhammad Ali asar boshida o'zining kirish so'zini keltiradi va asardagi eng birinchi sarlavhasini «Temurbekning mo'tavallud bo'lg'oni va olamni o'z jamoli bila yaruq qilgani so'zlari» deb ataydi. Bu esa forsha matnning 86-varaqdagi sarlavhaga mos keladi. Asar davomida Temurning o'zi haqida ko'pdan-ko'p biografik ma'lumotlar keltirilganligi uchun uni faqat Amirning g'alabalari tavsifi emas, balki hayotnomasi deb atash mumkin. Asarda Amirning barcha oila a'zolari va qarindosh-urug'lari haqida ham ko'plab ma'lumotlar keltiriladi.

«Zafarnoma» faqat sohibqironning harbiy yurishlarini maqtab, ko'klarga ko'tarishdan iborat, desak xato bo'lurdi. Unda inson harakterlari ham juda yaxshi tavsiflangan. Xususan, Temurning shaxsiy harakteri Sharafuddin Ali tomonidan zur mahorat bilan ko'rsatilgan. Muhammad Ali esa o'zbek tiliga ana shunday sahifalarni yuksak mahorat bilan akslantirgan. Ba'zi sahifalarda Temur faoliyati haqqoniy bayon qilingan va uni asoslashga

---

<sup>4</sup> Temur tuzuklari. Forschadan Alixon Sog'uniy va Habibullaxon Karamatov tarjimasi. T., G'.G'ulom, 1991, 68-bet.

urinishlar seziladi va uning mislsiz olamgirlingi ko'rsatilgan bo'lsa, boshqa sahifalarda, chunonchi. Qizi Tag'ayshohning va o'g'li Jahongir mirzoning vafotlariga taalluqli sahifalarda sohibqiron insoniy zaifliklarga ega bo'lgan kishi ekanligi ham ko'rsatilgan. Lekin ikkala muallif Sharafuddin, Muhammad Ali ham Amir sohibqironning buyuk sherqalbligi, mislsiz qahramonligi, dovyurakligi va bahodurligini katta haqqoniy va mahorat bilan ko'rsatgan. Bu sahifalar o'quvchida zarracha shubha tug'dirmaydi. Va Temur siymosi ko'z oldimizda chekinmas, yengilmas va zabardast jangchi sifatida gavdalanadi.

Asarda nafaqat Temur siymosi, balki uning atrofidagi ba'zi bonqa shaxslarning siymolari ham yuksak mahorat bilan tasvirlangan. Masalan, sohibqironning egachin (opasi) Qutlug' Turkon og'o haqida qisqagina ma'lumotlar keltirilgan bo'lsa ham, shu ma'lumotlarning o'zigina uni mushtipar va g'amho'r opa, nafis didli, idrokli va dono hamda jasur va vatanparvar ayol sifatida gavdalantiradi. Bu ayol tili bilan aytilgan bir necha og'iz so'zlarning o'zigina uning butun Eron va Turonda katta qudratga ega bo'lgan hamda xalqaro siyosatga kuchli ta'sir ko'rsata oladigan yuksak irodali hokima ayol bo'lganligini ko'rsatadi. Uning oti Turkon og'a bo'lganligi ham bejiz emasdek tuyuladi kishiga.

Amir Hoji Sayfuddin va amir Xusayn siymolari ham yuksak mahorat bilan tasvirlangan. Bularning birinchisi sohibqironning eng ishonchli do'sti va safdoshlaridan biri edi. Amir eng mas'uliyatli va og'ir vazifalarni farzandlaridan ham unga ko'proq ishonardi va yuklardi. U umrining oxirigacha sohibqironga sodiqligicha qoladi.

Amir Xusayn avvaliga Temurning qaynotasi va boshlang'ich paytlar safdoshi edi. Lekin u o'z tabiatidagi tubanliklar tufayli yuksak insoniylik xususiyatlariga erisholmaydi va nihoyat, Temurga nisbatan xoyinlikka o'tib, halokatga yuz to'tadi. Bu shaxs Temurga nisbatan qanday razilliklar qilgan

bo'lishiga qaramay, Amir sohibqiron unga doimo olijanoblik bilan va insoniylik bilan javob qaytaradi.

Amir Xusayn vaqti-soati tugab, hayoti bilan mamoti orasini qilcha qolgan daqiqalarda mualliflar sohibqironning yuksak insoniy kechinmalarini mohirlik bilan tavsiflaganlar. Lekin qanday bo'lishidan qat'i nazar, asarning markazida Amir Temur turadi. Mualliflar uni bir daqiqa ham uno'tmaydilar, xoh uzoq, va mashaqqatli yurishlarmi, hoh zafarli janglarmi, xoh siyosiy, madaniy yoki ma'rifiy ishlarmi — barchasida Amir shaxsan ishtirok etib, albatta masalaning eng to'g'ri va dono yechimini topadi, va har qanday og'ip sharoitdan edim lashkarini ustalik bilai olib chiqib ketadi va askarlarining hayotini saqlab qoladi. Masalan, 1391 yili To'xtamishga qarshi qilingan yurishda 200 ming kishilik lashkar og'ir ozuqa tanqisligiga uchraydi: bir askarga kuniga faqat bir tovoq atala berilardi. Boshqa yegulik narsa yo'q edi. Bunday og'ir ahvol yana necha kun davom etishi ham noma'lum edi. Shunda Amir sohibqiron original yo'l bilan bu ovqat tanqisligi muammosini yechadi: u butun askarlari bilan cho'lni xalqa qilib o'rashni buyuradi. Avvaliga diametri bir necha o'nlab kilometrga yetadigan o'lkan xalqa hosil bo'ladi. So'ngra xalqa torayib, kichrayishi natijasida «ortgan» askarlar ikkinchi qatlamini hosil qiladi. Xalqa ichida qolgan tirik jonivorlarni soni shu qadar ko'p ediki, mualliflarning aytishicha, askarlar ularni saralab, faqat semizlarini qoldirib, ozg'inlarinn qo'yib yuboradilar. Bundan otib olingan ov natijasida bir necha oylik ovqat jamg'ariladi. 9 oy davom etgan bu yurishda lashkar o'zini-o'zi ovqat bilan ta'minlaydi<sup>5</sup>.

Shundan harbiy taktika masalalarida XIV asr ikkinchi yarmi va XV asr boshida Amir sohibqiron o'tadigan boshqa bir shaxs yuq edi deyish mumkin. Bu borada og'ir bo'lib ko'ringan harbiy masalani hazrat Amir oz

---

<sup>5</sup> Temur tuzuklari. 55-bet.

sonlik askar bilan va sodda usul bilan hal qilganidan mualliflarimiz ham xayron qolishadi. 1364 yili Ilyos Xojani Keshdan haydab chiqarishda bor yo'g'i 300 kishidan iborat otliq askari otlarining ikki tarafiga shox-shabbalarni boylab, chang-to'zon ko'tarib, yirik lashkar kelayotgandek dushman ko'ngliga vaxima solishi; yoki yana bir gal urg'u bo'lib turgan va soni Temurnikidan bir necha bor ortiq bo'lgan dushmanning atrofiga qorong'u tunda gulxanlar yoqib yana dushmanlarni qo'rqitishi bunga misol bo'la oladi. Kavkazda Qora daryosidan ko'priksiz joyda qamishdan ko'prik yasab, osonlik bilan suvdan o'tishi ham shunday harbiy zehn va farosatning namoyish qilinishidir.

Asarda XIV asrga xos bo'lgan boy geografik ma'lumotlar keltirilgan. Shunisi diqqatga sazovorki, Iroq va Sharqiy Anatuliyadan to hozirgi Xitoy markazigacha va Fors ko'rfazidan to Kama daryosi xavzasigacha bo'lgan joy, suv, kent, shahar, tog' va dovonlarning o'zbekcha (qarluqcha) nomlari keltiriladi. Bu esa uchala mo'g'ul ulusida ham XIV asrda chig'atoy turkiy tili tarqalganligidan dalolat beradi.

Temurning «uch yillik», «besh yillik» va «yetti yillik» yurish janglarida va boshqa bu atamalarga kirmagan urushlaridan oldiga qo'ygan maqsadi nima edi? degan savol tug'iladi. Odatda rus va sovet mualliflari bu savolga, maqsadi faqat boylik orttirish uchun olib borilgan bosqinchilik va qirg'inbarot urushlari edi, deb javob berib kelganlar. Masalaga yuzaki yondashganda shunday tuyulishi mumkin. Lekin 1385 yilgacha Temurning mamlakatlarni bosib olish niyati bo'lmaganligi aniq. O'sha yil boshida To'xtamishxonning Tabrizga bostirib kelib, shaharni vayron qilishi uning rejalariga qat'iy o'zgartirish kiritadi. Bundan bir necha yil avvalroq u «Xudo bitta bo'lganidek butun dunyoda podsho ham bitta bo'lishi kerak» degan bo'lsada, bu fikrini u hech qachon to'la amalga oshirishga harakat qilmagan edi. Mazkur yilgacha olib borgan urushlari asosan yo turli vaqtlarda orttirgan

dushmanlaridan o'ch olish, yoki aholiga zulm o'tkazayotgan hokimlarning tanbixini berish, yohud shar'iy farz deb hisoblangan diniy dushmanlar bilan olib borilgan gazavot urushlari edi. Gazavot urushlarini ham u faqat musulmonlarga nisbatan zulm o'tkazayotgan g'ayridinlarga qarshi olib borardi. Bu hol asarda o'z aksini topgan. Lekin To'xtamishning mazkur yurishlaridan so'ng u butun Eronni bosib, Oltin Urdaga qo'shib olishi xavfi tug'iladi. Shuning uchun Amir Temur Tuxtamishdan avval Eronni o'z mulkiga qo'shib olishga qaror qiladi. Eronni zabt etganidan so'ng umuman Hulogu mulkini tamoman zabt etish g'oyasi tug'iladi. Xaqiqatdan ham Hulogu mulkining asosiy qismi bo'lmish Eron va u mulkning ikkala poytaxti Tabriz va Sultoniya zabt etilganidan so'ng bu mulkning parchalari bo'lmish Iroq, Suriya va Sharqiy Anatuliyani qo'shib olmay iloji yuq edi. Chunki bu yerlarning hokimlari Temurning dushmanlariga panoj berib, yerlari Amirga nisbatan ig'vo va hujum plandarmi-bazasiga aylangan edi.

Temur harbiy yurishlarining yana bir sababi bor edi. Bu ham bo'lsa, Buyuk Ipak yo'lini bir mamlakatga birlashtirib, undagi xavfsizlikni ta'minlash edi. Sharafuddin bir necha marta Mo'g'uliston, Eron va Iroqda mahalliy hokimlarning farovonliga yoki karoqchilar kuchayganligi sababli karvonlar va hatto elchilar yurolmay qolganliklari va hujga ham borish xavfli bo'lib qolganligini aytadi.

To'xtamish va Boyazid bilan olib borilgan janglarda esa xaqikat to'la ravishda Temur tarafida edi. Bunga o'quvchining o'zi mutolaa chog'ida guvoh bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur o'z davrining farzandi va eng yirik lashkarboshisi edi. Uning davri esa nihoyatda murakkab edi. XIV asr o'rtasiga kelib mo'g'ullarniig uchat g'arbiy uluslari — Oltin O'rda Chig'atoy ulusi, Hulogu ulusi harbiy va siyosiy inqirozga uchragan edi. Agar Temur bo'lmasa, To'xtamish yoki boshqa kuchli shaxs bu parchalanib

kuchsizlangan mulklarni albagga birlashtirishga, o'ziga qo'shib olishta urinardi.

Undan tashqari 1368 yili Xitoyda Mo'g'ul hukmiga barham berilib, hokimiyat tanasiga xitoylarning Min sulolasi kelishi g'arbiy mo'g'ul uluslariga ham xavf tug'dirgan edi. Chunki xitoylar darxol Mo'g'ulistonni o'zlariga tobe' ettirib, o'zlarini Chingizxonning vorisi deb e'lon qildilar, va bundai keyin Xitoy imperatorlari g'arbiy uluslar ham ularga bo'ysunishini talab qilishlari tabiiy edi. Shuning uchun ham g'arbda Temur va Tuxtamishxon kabi ikki yirik shaxsning sahnaga chiqishni tasodifiy emas edi.

Amir Temur yurishlariga baho berishda shu holatlarni ham e'tiborga olish keraq Endi bir necha og'iz so'z asarning tili xaqida. Muhammad Alining tili eski o'zbek tilining ajoyib bir namunasidir. Uni biror-bir hozirgi davr bilan butunlay bog'lab bo'lmaydi. Bir tarafdin bu til biz ko'nikkanimiz Zahiriddin Muhammad Boburning tiliga o'xshasa, ikkinchi tarafdin shimoliy Buxoro bilan Xorazmning sharqi va Sirdaryo bo'ylaridagi tilni eslatadi. Umuman olganda, bu til qarluq, qipchok va ug'uz elementlarini o'z ichiga olgan bo'lsa ham, qarluq elementi unda ustun keladi. Va shu jihatdan haqli ravishda uni o'zbek tili deymiz.

Bu til XIV—XVI asrlarda nafaqat Movarunnaxrda balki Volganing quyi oqimidagi Saritsindan (Volgograd) to Sind daryosi xavzasigacha oraliqda tarqalgap edi.

Muhammad Ali Yazdiyning bayon uslubi shu qadar maftunkorki, biz bu usulni shuning uchun asarning tilini hozirgi adabiy tilga ko'chirmay o'zicha qoldirishga qaror qildi. Chunki bu asar XVI asr birinchi choragidagi o'zbek prozasining yirik va jonli namunasidir. Shu bilan birga bu asar tili hozirgi zamon tilshunoslarida ham qiziqish uyg'otar degan iyyatdamiz.

Muhammad Ali o'zi tarjimasini bajarayottanida aytarli yosh bo'lmagan ko'rinadi. Chunki unda katta yoshdagilarga xos bo'lgan unutish



alamatlari seziladi. Masalan, ba'zi betlarda ayrim gaplar tugamay qolishi hamda gapniig o'rtasida ayrim jumlarlar tushib qolish hollari ham uchraydi. Bunday hollarda biz u gaplarni forscha matnga ko'ra tikladik va tushib qolgan jumlarlarni shartli ravishda keltirdiq Tarjimop ba'zi so'zlarni yozishda aniq qoidaga rioya qilmaydi. Masalan, shoh va shoxzoda so'zlarini shundan so'ng "alif" bilan ham, "alif"siz ham yozadi. Bunday xollarda biz matn orfografiyasini saqlash uchun birinchi holda shoh shoxzoda va ikkinchi holda shoh shaxzoda shaklida keltirdik; ko'prik va fil degan so'zlarni u bir betning o'zida ko'prik va nil shakllarida keltiradi. Bunday xollarda ham bu so'zlarni tuzatib o'tirmay, matndagidek keltirdiq Ko'p hollarda hozir «ya» bilan boshlanadigan so'zlar ikki harf bilan keltirilganligi uchun biz orfografiyani saqlash uchun bu o'rnida "ya" bilan yozdpk (masalan: Yazd, yangi, yamgur va h.q). krilcha "ya" "yu" yoki "yo" saqlashish esa o'quvchi extiyojiga bog'landi. Buni xatto o'rnida ko'rماغaylar<sup>6</sup>.

Ikki og'iz so'z asardagi she'riyat haqida. Avvalo, shuni aytish kerakki, forscha matnda Sharafuddin klassik arab va fors she'riyatidagi anʼyanani davom ettirib, asarning har bir betiga qator she'rlarni kiritgan. Lekin ko'pincha bu she'riyatda u aytarlik yuksak mahoratga erisholmagan va shuning uchun keltirilgan she'rlarning ba'zilari ancha sust bo'lib qolgan. Tabiiy, Muhammad Ali bu she'rlarning hammasini o'zbekchaga o'giravermagan. Faqat u ba'zi she'rlarnigina qoldirgan va ularni ancha ustalik bilan o'zbekchaga ag'dargan.

Bunday she'rlar Muhammad Alining she'riyat bobida ancha mahorati bo'ltanligidan guvohlik beradi.

Xalqimiz qadimgi qaxramonlar haqida dostonlarni sevib o'qnganliklarini yaxshi bilamiz. O'tgan asrning 40-nchi va 50-nchi yillar

---

<sup>6</sup> Temur tuzuklari. 59-bet.

oxirlarigacha ham eski arab yozuvida sovet davridan ilgari chop etilgan «Abo Muslim», «Iskandarnoma», «Shoxnoma» kabi kitoblarni gashtaklar va shunga o'xshash yig'inlarda eski yozuvni bilgan bir odam o'qirdi, qolgan ishtirok etuvchilar diqqat bilan eshitardilar. Shunda kitobdan voqea rivojlanishiga qarab tinglovchilarda kulgi ham, ko'z yoshi ham bo'lardi, lekin u kitoblar, ayniqsa «Shohnoma», afsonaviy yoki yarim afsonaviy Eron shoxlari haqidagi uydirmalarning mohirona she'riyatga solingani edi. «Zafarnoma» esa real qahramon va pahlavon, ajdodimiz sohibqiron Amir Temur Ko'ragonning hayoti va faoliyati haqidagi haqqoniy xabarlarining tavsifidir. O'ylaymizki, qahramon bobomizning hayotnomasi sizga manzur bo'lgay. Ushbu nashrda hoshiyadagi raqamlar va satr ichidagi og'ma chiziq sahifa raqami va uning boshlanish joyini bildiradi. Xijriy tarixlardan keyin qavs ichida ularning melodiya o'tkazilganlarini keltirdiq Shartli qavs ichida keltirilgan so'z va iboralar forscha matnga ko'ra tiklangan. Kitobning oxirida ba'zi jug'rofiy iboralar va tushunchalar izohlangan. Qur'oni karim oyatlari tanqid asosida emas, transkripsiya qoidalarini asosida o'qildi va izohlarda ularning tegishli suralardagi o'rni ko'rsatildi.

Tagan: ra'ya, tobe', voqe', voqe'a, taalluq kabi bir qator kalimalar tarjimon-muallif yozgali holda qoldirildi, juz'iy o'zgarishlar bilan tabdillanman. Qulyozmadagi ba'zi siyrak uchraydigan, jumladan, arabchasi dol, kof, lom va yo harflaridan tarkib topgan, bir qarashda «daklay» deb o'qish mumkin bo'lgan so'zni shartli ravishda “dikkalay” - deb o'qildi. Bu, darvoqe, dushman boshiga tik, tikkalay bordi degan Buxoro va Xorazmda saqlangan iboraga ham mos keladi. Bu narsa ayrim boshqa hollarda ham uchraydi. Dunyodagi yagona o'zbekcha qo'lyozmasi asosida tayyorlangani uchun ham kitobda bunday sohtaliklar bo'lishi tabiiy. Ko'rsatkichlardagi raqamlar qo'lyozma matnining varaq sahifalarini bildiradi. Mundarijada esa ushbu nashr betlari ko'rsatildi.

## **1.2.Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida tarixiy voqealar bayoni**

XIV asrning 50-60-yillarida Movarounnahrda siyosiy tarqoqlik g'oyatda kuchayib, o'zaro ichki ko'rash yanada keskinlashadi. Mamlakatdagi har bir viloyat alohida hukmdorlikka ajralib, ular o'rtasida nizo kuchayib ketadi va qonli urushlarga aylanadi. Bu davrda mamlakatda yagona uyushgan davlatning yo'qligi, uning siyosiy jihatdan maydalanib ketganini o'rta asr muarrixlaridan Riyosuddin Xondamir o'zining «Xabib us-siyar» nomli asarida quyidagicha tasvirlaydi: «Amirzoda Abdullo binni amir Qozogon (1346-1358) vafotidan so'ng Turkiston ahvolidan garaju maraj (bosh-boshdoqlik) yo'l topib, har shaharda mustaqil shohlikka intilishlar maydonga keladi. Har kasabada bir uyatsiz davlat iqbol havosi bilan qo'zg'alishga oyoq bosdi. Xondamirning yozishicha, ulus unga yaqin mustaqil bekliklarga bo'linib ketadi. Samarqand viloyatida Amir Bayon Sudduz, Keshda Amir Xoja Barlos, Xo'jandda Amir Boyazid Jaloir, Balxda Ujaydu Sudduz, Shiburg'onda Muhammad Xoja Yazdiy, Ko'xistonda Amir Sotilmish, Xuttalonda Kayxusrav, Xisori Shodman chegarasida Amir Xusayn va Amir Xizir Yasovuriylar o'zlarini hokimi mutlaq deb e'lon qiladilar<sup>7</sup>.

Nizomuddin Shomiyning so'ziga qaraganda, mamlakatda hokimlar o'rtasida doimo nizolar va g'alayonlar bo'lib turar, davlat ishlari esa butunlay izdan chiqqan edi. Siyosiy parokandalik, o'zaro urush va janjallar iqtisodiy takglikka sabab bo'lib, mamlakat aholisini, ayniqsa dehqonlar xo'jaligini xonavayron qilgan edi. Buning ustiga Sharqiy Turkiston va Yettisuvda tashqil topgan Mo'g'uliston amirlari Movarounnahrni bosib olishga harakat qiladilar. Bir necha bor Movarounnahr ustiga yurish qilib, uni talab qaytadilar. Mo'g'uliston amirlarining vayrongarchilik yurishlariga qarshi

---

<sup>7</sup> Amir Temur va uning dunyo tarixidagi o'rni. (Buyuk sohibqiron Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag'ishlangan xalq ilmiy konferensiyasi ma'ruzalari bayoni). S., 1996.

ko'rash boshlanib ketadi. Mo'g'ullar istibdodi va zulmiga qarshi xalq harakati boshlanadi.

Mana shunday ichki o'zaro urushlar qizigan, mo'g'ullar zulmiga qarshi mexnatkash xalq harakatlari boshlangan bir davrda qisqa vaqt ichida o'rta asrlarning yirik davlatini vujudga keltirgan sohibqiron Amir Temur siyosat maydoniga dastlabki qadamlarini qo'ymoqda edi.

Amir Temur tabiatan og'ir, bosiq teran fikrli va idrokli, samimiyatni tezda fahmlab oladigan inson bo'lgan. Shu tufayli atrofiga o'spirinlik chog'laridayok tengqo'laridan sadoqatli do'stlarini jalb qila, olgan. O'zining ilk harbiy faoliyatini Amir Temur qo'l ostidagi navkarlari bilan ayrim viloyat amirlariga xizmat qilimdan boshlagan. Ularning o'zaro ko'rashlarida qatnashib, jasorat ko'rsatgan va janglarda chiniqqan, Harbiy mahorati va oliyhimmatlilik Amir Temurning shuhratini oshirib, uning dong'i butun Qashqadaryo vodiysi, hususan, Kesh viloyatiga yoyilgan. Amir Temurning aqlu zakovati, shijoati va jasorati to'g'risidagi shuhrat uni Movarounnahrning nufuzli amirlaridan avval Joku Barlos, so'ngra Amir Qozogon (1346—1358) bilan yaqinlashtirgan. Otasi Amir Temurni avval (1352) Amir Joku Barlosning knzi Turmish Og'oga uylantirgan, so'ngra esa (1355) Amir Qazog'onning nabirasi va Amir Xusaynning singlisi Uljoy Turkon Og'oni o'z nikohiga olgan keyingi nikoh tufayli Balx amiri bilan bog'langan qarindoshlik aloqa, shubhasiz, Amir Temur bilan Amir Xusayn o'rtasida ittifoqni yuzaga keltiradi va mo'g'ullarga qarshi jiddiy ko'rash boshlanadi.

Amir Temurning Movarounnahrni birlashtirish yo'lidagi dastlabki harakati XIV asrning 60-yillari boshlaridan boshlanadi. Buning sababi bor edi. XIV asrning 50-yillari oxirida Movarounnahrda amirlarning o'zaro ko'rashi kuchayib, Amir Qozogon uldiriladi. Mamlakatda siyosiy parokandalik avjga chiqib, har jihatdan og'ir tanglik sodir bo'ladi. Bu davrda Chig'atoy ulusining sharqiy qismi — Yettisuv va Sharqni Turkistonda

hukmronlik qilayotgan mo'g'ul xonlari Movarounnahrda og'ir siyosiy vaziyatdan foydalanib, bu o'lkada o'z hokimiyatini o'rnatishga harakat qiladilar. Mo'g'ul xonlaridan Tug'luq Temur (1359-1363) 1360-1361 yillarda Movarounnahrda birin-ketin ikki marta bostirib kiradi. Mo'g'ul xonlarining vayronagarchilik yurishlari, istibdodi va zulmiga qarshi xalq harakati boshlanadi. Biroq Movarounnahr amirlari xalqda bosh bo'lib, mo'g'ul bosqinchilariga qarshi ko'rashga jur'at eta olmaydilar. Ularning bir qismi dushman tarafiga o'tadi, ikkinchi qismi esa el-yurtini tark etib, o'zga mamlakatlardan boshpana izlaydi. Amir Temurning amakisi Kesh viloyatining hukmdori Amir Xoja Barlosdek Baxrdarbek Xuroson tomon qochadi.

Mo'g'ullarga qarshi turish uchun kuchlarning teng emasligini hisobga olgan 24 yoshli Amir Temur 1360 yilning boshida Tug'luq Temur tomonidan Keshga yuborilgan beklar bilan kelishadi. Sharoit taqozosi bilan Kesh viloyatini butunlay qo'ldan chiqarib yubormaslik maqsadida xon xizmatiga o'tadi. Natijada Tug'luq Temurning yorlig'i bilan o'z viloyatining dorug'asi etib tayin qilinadi. Shubhasiz, bu noilojlikdan qo'yilgan siyosiy va strategik qadam edi. Bu bilan Amir Temur mo'g'ullarning navbatdagi talonining oldini olib, mamlakat va xalqni bunday halokatdan qutqargan edi. Ushbu voqealar Sharofiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida quyidagicha berilgan:

**Tyg'luq Temurxon cherik yig'ib,**

**Movarounnahr sori kelgoni**

Movarounnuhr viloyati aytilg'on qissadin parishon bo'lib erdi. Tug'luq Temurxonkim, Emil Xoja o'g'li erdi va Emil Xoja Duvaxonning o'g'li erdi va bu Duvaxon Chig'atoy naslidin erdi, Jeta viloyatida podshoh erdi. El-ulusini yig'ishturub, rabi' as-soniy oyida, torix yetti yuz oltmish birda, sichqon yilida (yanvar, 1360) Movarounnahr viloyatining parishonlig'ini eshitib, cherik tortib Movarounnahr sori yuzlandi. Tarmashirin xondin beri

o'ttuz uch yil kechkon erdi va bu o'ttuz uch yilda sakkiz xon Chig'atoy ulusida podshohlik qildilar<sup>8</sup>.

Tug'luq Temur Chanoq Buloqkim, Xo'jand suyig'a yaqin turur, Toshkand sahrosidin chiqib andi tushti. Anda beklari bilan kengashti. Maslahat bu ko'rdilarkim, Ulug' Temurkim, o'mog'i kerait erdi, va Hojibekkim, o'mog'i arkanut erdi, va Bekkichikkim, o'mog'i qanqli erdi, ilgari yurug'aylar. Bu uch bek xon yorlig'i bila yuridilar. Xo'jand suyidin kechib erdilarkim, Boyazid Jaloyir el-ulusi bilan alarg'a qo'shuldi va ittifoq bilan Kesh viloyati sori yuridilar. Amir Hoji Barlos Kesh va Darshi cherikini yig'ishturub, urushur xayolini qildi. Ammo o'zi bilan har nechakim fikr ettikim, bu kelgon yaag'ini nechuk daf' qila olg'ay, bilmadi. Oqibat maslahat mundoq ko'rdikim, alar yetkondin burun el-ulusi bilan Xuroson sori borg'ay. El-ulusini va kishi-qarosini va ypyg'-qiyoshini barchani ko'churub Xuroson sori bordi.

Movarounnahrning hukmdori etib tayin qilingan Ilyosxoja bilan Amir Temurning murosasi to'g'ri kelmaydi. Shu sababli u 1361 yillar oxirida mamlakatni tark etishga majbur bo'ladi. U Movarounnahrning nufuzli amirlaridan Xusayn bilan ittifoq tuzadi. Amir Temur Xusaynning singlisi Uljoy Turkon Og'oga uylangach, ularning ittifoqi qarindoshlik aloqalari tufayli yanada mustahkamlanadi. Amir Temur va Xusayn avval boshidanoq movarounnahrlik isyonkor amirlarga, so'ngra esa, mo'g'ullarga qarshi ko'rash olib boradilar. 1363 yilda Amudaryoning chap sohilida Qunduz shahri yonida mo'g'ullar bilan birinchi jangi bo'lib, unda Amir Temur va Xusaynlar umumiy dushman ustidan g'alaba qozonadilar. Keyingi ikki yil davomida ittifoqchilar Ilyosxoja boshliq jeta lashkarlari bilan bir necha marta jang qiladilar. Nihoyat 1364 yil oxirida ular mo'g'ullarni Movarounnahrda quvib chiqaradilar.

---

<sup>8</sup> Sharofiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma". T., "Sharq", 1997, 87-bet.

Biroq Movarounnahrni qo'ldan chiqarishni istamagan Ilyosxoja 1365 yilning bahorida yana Turkiston ustiga qo'shin tortadi. Ikki o'rtadagi jang 1365 yil 22 may kuni Toshkent bilan Chinoz o'rtasida, Chirchiq daryosi buyida sodir bo'ladi. Tarixda u «Jangi loy» nomi bilan shuhrat topadi. Chunki o'sha kuni kuchli jala quyib, jang maydoni botqoqlikka aylanadi, hatto otlar loyga botib qoladi. Jangda Amir Temur bilan Xusayn kelishib harakat qilmaganliklari oqibatida ular mag'lubiyatga uchraydilar. “Zafarnoma”da bu voqea quyidagicha berilgan:

**Husaynbek bila hazrat sohibqiron Jeta cheriki bilan urushub,  
muzaffar va mansur bo'lg'onlari**

Husaynbek va hazrat sohibqiron hazrat Haqqning shukr va siposidin so'ng saodat va davlat bilan otlanib, ikki qul tartib ettilar: Xusaynbek o'ng qo'l sori bo'ldi va hazrat sohibqiron so'l qo'l bo'lub yuridilar. Va dushman cherikikim, Tosh arig'ida erdi, ul taqi ikki qo'l bo'lub, o'ng qo'lda Ilyos Xojaxon va Hamidbek turdilar. Va so'l qo'lda Tug' Temur va Bekkichik turdi<sup>9</sup>.

**Loy urushining sharhi**

Hazrat Maliki allomdin bandasig'a davlat bersa, ul avval bandani jafo va nakbat bila azob qilur. Va agar ham'iyat va xuzur bersa, yana ani parishonliq va nomurodliq ichida solur. Base, davlatkim, anda bor mehnat, xorluqkim anda bor — izzat. Va bu so'z hazrat sohibqironning sha'nida tururkim, chun ul qish o'tub, bahor mavsumikim, olamni yana jannatdek qildi.

Bovujud ulkim, javzo mavsumi erdi, ancha yang'ur to'kdikim, olam to'la suv bo'ldi va andoq balchiq bo'ldikim, ot yeridin tebrana olmay va otliqu yayoqqa majoli harakat yo'q erdi. Va o'z yerlariga hayron bo'lub

---

<sup>9</sup> Sharofiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma”. T., “Sharq”, 1997, 89-bet.

yamg'ur jihatidin boshlarig'a kapanak tortib turub edilarkim, muxolif cheriki alarga yetti, kapanaklarini boshlaridin tashlab, urush qildilar<sup>10</sup>.

### **Jeta cheriki Samarqand shahrining qamal qilg'onlari**

Jeta cheriki Samarqandg'a yettilar. Va ul mahalda Samarqandning qal'asi yo'q erdi. Mavlonozoda Samarqandiy va Xo'rdak Buxoriy va Abu Bakr Kalaviy Naddof shahar eliga dedilarkim, ko'chaband va muhofizatqa mashg'ul bo'ldilar. Va muddati ul shaharning ra'iyatlari bovujud ulkim, alar ichida hokimi yo'q erdi, andog' urushtilarkim, malak falakda alarg'a maxtadi. Va Jeta cherikiii qo'ymadilarkim, shaharning yaqinida kelgaylar. Qamal asru uzun bo'lg'oy jihatidin ojiz bo'lub, xudoyg'a yobordilar. Alarning duolari mustajob bo'lub, hazrat Haqqining lutfi faryodlarig'a yetib, nasimi ruhbaxsh Fa-ipna ma'a-l-'usri yusran iina ma'al-usri yusro rahmati Ilohiydin kelib, Jeta cherikining otlari ichida vabo tushub, ancha ot o'ldikim, to'rt kishi orasida bir ot qolmadi<sup>11</sup>.

XIV asrning 60-yillarida Movarounnahrda hukm surgan nihoyatda og'ir siyosiy va iqtisodiy vaziyat mamlakatni birlashtirib, kuchli bir davlat tashqil etishni talab qilmoqda edi. Amir Husayndan ko'ra Amir Temur o'z zamonining bunday talabini yaxshiroq tushunardi. Shuning uchun ham u o'z faoliyatining dastlabki bosqichida barcha harakatni Movarounnahrda markazlashgan davlat tuzishga qaratadi. Bunday maqsadni amalga oshirishda u ruhoniylar, harbiylar, savdogarlar va shahar hunarmandlari tabaqalariga suyanadi. Amir Temur tarqoq mamlakatni birlashtirishga kirishar ekan, ko'rashni avvalo ichki va o'ziga yaqin g'animlaridan boshlaydi. 1370-yilning bahorida Amir Temur kuchli raqib, sobiq ittifoqdoshi, Balx hukmdori Amir Husaynga qarshi yo'lga chiqadi. Qo'shin Termiz yaqinidagi Buyo qishlog'iga yetganida aslzodalardan Sayyid Baraka Amir Temur faoliyatini qo'llab-quvvatlab, unga Oliy hokimiyat ramzi katta nog'ora— tabl

---

<sup>10</sup> O'sha joyda.

<sup>11</sup> Qarang: "Zafarnoma".95-bet.



bilan yalov — bayroq tortiq qiladi. Shubhasiz bu voqea siyosiy ahamiyatga ega edi. Chunki u saltanatlik ramzi edi. Amir Temur buni yaxshi tushunardi. Shuning uchun ham u Balxga yetmasdan O'rpuz mavzeida amir va no'yonlar bilan mashvarat (majlis) o'tkazadi. Ko'pchilikning xohish va ixtiyori bilan, qadimiy qonun-qoidaga ko'ra, chingiziylar avlodidan bo'lgan Suyurg'atmish o'g'lon (1370—1388) mamlakat podsholigi taxtiga o'tqiziladi. Bu orada Amir Temur qo'shini to Balxga yetib borgunicha, yo'l-yo'lakay unga yangi-yangi kuchlar kelib qo'shiladi. Bu paytga kelib Amir Husaynning ko'pchilik amirlari uni tark etadilar. Jangda Amir Husayn qo'shinlari yengiladi, ikki ko'nlik qamaldan so'ng, 1370-yilning 9-aprelida Balx shahri Amir Temurga bo'ladi. Amir Husayn asir olinib, qatl etiladi. Ushbu tarixiy voqealar haqida “Zafarnoma”da quyidagicha ma'lumotlar berilgan:

**Hazrat sohibqiron Husaynbek bila urushub, zafar tobqonlari.**

Xusaynbekning ishi va fe'lidin tahqiq bo'ldikim, ahd va ontni sindurub, hazrat sohibqirong'a qasd qilg'on turur. Hazratqa vojib bo'ldikim, aning daf'ini qilg'ay. Hazrat Haqqg'a tavakkal qilib, daf'ig'a jozim bo'lub, Husaynbek sori yuridi va muxolifatni zohir qildi. Va cherik yig'ishturmoqqa mashg'ul bo'lib, Shayx Muhammad Bayon Sulduzkim, qochib Sayhundin o'tub O'trorg'a borib erdi, Hindu Qarqara Qipchoqni anga yibardi. Hazrat sohibqironning cheriki yig'ilg'ondin so'ng Musabekni qo'lig'ul etib, muborak nafasi bilai farxunda soatda Keshdin chiqib, bahodurlar bilani ilgari yuridi<sup>12</sup>.

1370-yilning 10-aprelida Chig'atoy ulusining bek va amirlari, viloyat va tumanlarning zodagon ayonlari hamda Termizning xonzodalari, shuningdek Amir Temurning piri Sayyid Baraka ishtirokida qurultoy o'tkaziladi. Manbalarda ta'riflanishicha, qurultoyda e'tiborli amirlar, Temurning yoshligidagi quoldoshlari va uning sobiq dushmanlari hozir

---

<sup>12</sup> Qarang: “Zafarnoma”. T., “Sharq”, 1997, 88-bet.

bo'lgan edilar. Ular orasida Bayon Sulduz, Amir Uljoytu, Amir Kayxisrav, Joku Barlos, Amir Zinda Chashm va boshqa mo'tabar ma'murlar bor edi. Qurultoyda Amir Temurning hukmdorligi rasman tan olinib, u Movarounnahrning amiri deb e'lon qilinadi. Garchi saltanat taxtiga, an'anaga ko'ra dastlab nomigagina Suyurg'atmish, so'ngra uning vafotidan keyin Sulton Mahmud (1388—1402) o'tqizilgan bo'lsada, amalda markaziy hokimiyatni Amir Temurning o'zi boshqarar, viloyatlardagi hokimiyatni o'g'illari, nabiralari va yaqin amirlari orqali idora qilardi.

Sharofiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida sohibqironning Samarqand, Qarshi va Shibirg'onga borganligi haqida ma'lumotlar quyidagicha berilgan:

### **Hazrat sohibqiron saodat va iqbol bila Samarqand sori borg'oni**

Sohibqironi komkor Kesh cherikini jam' etib, Samarqand sori mutavajjix bo'ldilar. Tarmochuq Uyg'ur va Tag'ayshohni Kesh viloyatida darug'a quyub, o'zi davlat bilan Samarqand sori yuzlandi. Samarqandqa yaqin yetkonda Uch Qaro Bahodur Musabekning cheriki bilan shahardin chiqib, Rahmatobining yaqosida yasol tortib turdi. Hazrat sohibqiron alar sori yurub, bir hamla bila barchani bir-bir etti. Va Oq Temur Bahodur Uch Qaro Bahodurning keynida chopib, anga yetib bir qilich soldikim, sadaqig'a tegib, tamom o'qlarini ikki kesildi. Va Uch Qaro egar ustida o'zini to'lg'ab bir qilich soldi. Ul qilich Oq Temur Bahodurning oti boshiga tegib, otga yiqildi va ul yayoq qoldi. Uch Qaro qochib shaharg'a kirdi. Sohibqiron saodatqarin Revtan mavze'ida tushti. Va Uch Qaro yana ming besh yuz kishi otlandurub urushqa chiqdi. Va sipoh nusratpanoh sher kibikim ov sori yuz qo'ysa, alar sori choptilar. Va alar qo'rqunchdin turolmay urushdin burun, qochtilar. Qochqon cherik shahar mahallasida kirgonda ko'chalarni tor qilib edilar. Otlarni egarini olmay tor ko'chalarg'a kirganda barchaning egarlari sindi va yuz nakbat bilan shaharg'a kirdilar. Andin hazrat sohibqiron saodat va iqbol

bila sa'd sori /Farinkent va Sog'arj mavze'ida borib, necha kun o'lturdi. Bu mahalda habar keldikim, O'ljaytu va Po'lot Bug'a qarounas cherikin jam' etib beri kelatururlar. Bu habar din so'ng Tag'ayshox Keshdin qochib keldi va dedikim: «Bir pora kishi xabarsiz Tarmochuq boshiga kelib, ani tutub o'lturub tururlar». Va hazrat sohibqiron bu xabarni eshitib o'tlanib, Yomg'a tushti va Arg'unshoh Budalig'iykim, xabar bilgali borib erdi, kelib bir kishi o'zi bila olib kelturdi. Ul kishidin habar surdilar, yukunub javob berdikim, «Uljaytu va Po'lod Bug'a To'm suying'a yetib tururlar va Husaynbek cherik bilan Qarshiga tushti. Hazrat sohibqironning savob ra'yikim tafriq sayqalidin yaruq bo'lg'oy erdi, maslahatni andoq ko'rdikim, al-umur marxunatui bi avqotiha necha kun ro'zg'or bila chiqishmoq kerak, to mahal yetkaykim dushmanlarni o'z murodi bila elikka kiyurgay. Va mo zalika ala-Llohil-azizin.

Bayt:

Yoqut bo'ldi sabr ila toshdin burun,

Sabr qilg'onidin o'ldi aning qiymati fuzun.

Bu sababdin har cherikkim, Kesh viloyatidin jam' etib erdi, ijozat berdi va olti yuz kishi bilankim, Xuroson viloyatidin aning bila kelib erdi, Samarqandning suv quyi sori bordi.

### **Hazrat sohibqiron Shiburg'ong'a cherik tortib borg'oni**

Hazrati sohibyamin amir Temur Guragon Zinda Chashmning yamon harakatidin xabar topib, qahr o'ti ichida tushub, bo'lg'on cheriki bilan ang'a mutavajjih bo'ldi. Amu suyidin o'tub Shiburg'ong'a yetti. Zinda Chashm andin qochib Anjo qal'asigaki, «Shohnoma»da /Safiddiz aytib turur, ayda borib kirdi. Nusratshi'or cheriki qal'aga yetib, kavs va naqqora chaldilar. Va Zinda Chashm ul cherikni ko'rub ko'nglida vahm tushub, chora mundin o'zga ko'rmadikim, yamon fe'lidii qaytib gunohidin tavba qilgay. Uljaytubekka kishi yibarib dedikim: «Mening gunohimni hazrat

sohibqirondin tilagil». Uljaytubek hazrat qoshig'a kelib aning arzadoshtini xazratqa arz qildi va yig'lab dedikim: «Aning gunohini o'z karaming bila bu qari qulung'a bag'ishlagil va ul nodonligidin va yamon fe'lidin tavba qildi». Hazrat sohibqiron Uljaytubekning xotiri uchun gunohidin kechib bag'ishladi. Va Zinda Chashm Musabeknikim, bu fasodqa ul sabab erdi, qal'adin chiqarib inisi bilan hazrat qoshig'a yibardi. Va hazrat sohibqiron cherikini ijozat berib, o'zi qaytib Kesh viloyatiga tushti va Musabekning gunohidin kechib, lutfu karam bila siylab to'ylar qilib, otlar va qator tevalar va xachirlar va ola borgohlar berib, ul elkim anga burun taalluq erdi, yana anga berdi<sup>13</sup>.

Bayt:

Toki bordur olam va olamda bordur podshox,  
Shoxlardin afv xushdur, banda gar qilsa gunoh.

#### **Hazrat sohibqiron Balx va Termiz sori cherik yibarg'oni**

Qazodin Zinda Chashmning davlat sahifasida nakbat razami tortib erdilar, bovujud ulkim, hazrat sohibqiron andoq lutf va marhamat aning haqqida qildi. Yana aning ko'nglida vasvasa solib va g'urur devi ani muvofiqat yo'lidin chiqorib mutobi'at tariqidin badbaxtliq ayog'ini tashqari qo'yub, yamon havaslar ko'ngliga tushti. Va ajib bu tururkim, xonzoda Abulmaoli aning bila muvofiq bo'ldi va falak yuz til bilan aytur erdi<sup>14</sup>.

---

<sup>13</sup> Sharofiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma". T., "Sharq", 1997, 94-bet.

<sup>14</sup> Qarang: "Zafarnoma". 88-bet.

## **II-BOB. Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida Amir Temur faoliyatining yoritilishi**

### **2.1.Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida Amir Temurning Movarounnahrni birlashtirish va xavfsizligini ta’minlash uchun ko’rashi bayoni.**

1370 yilning 11 aprelida Chig’atoy ulusining bek va amirlari, viloyat va tumanlarning zodagonlari hamda Termizning xonzodalari, shuningdek, Amir Temurning piri Sayyid Baraka ishtirokida qurultoy o’tkaziladi. Manbalarda ta’riflanishicha, qurultoyda e’tiborli amirlar, Temurning yoshligidagi quroldoshlari va uning sobiq dushmanlari hozir bo’lgan edilar. Ular orasida Amir Shayxmuhammad Bayon Sulduz, Amir Uljoytu, Amir Kayxusrav, Amir Joku Barlos, Amir Zinda Chashm va muftabar ma’murlar bor edi. Qurultoyda Amir Temurning hukmdorligi rasmiy tan olinib, u Movarounnahrning amiri deb e’lon qilinadi. Garchi saltanat taxtiga, an’anaga ko’ra, dastlab nomigagina Suyurg’atmish (1370-1388), so’ngra uning vafotidan keyin Sulton Madmudxon (1388-1402) o’tkazilgan bo’lsa-da, amalda markaziy hokimiyatni Amir Temur o’zi boshqaradi, viloyatlardagi hokimiyat o’g’illari, nabiralari va yaqin amirlari orqali idora qilinadi.

Movarounnahrning yagona hukmdori bo’lib olgach, Amir Temur o’z davlatini siyosiy va iqtisodiy jihatdan mustahkamlashga kirishadi. Avvalambor davlat uchun mustahkam poytaxt - bebosh mahalliy hukmdorlarning xujumlariga qarshi tura oladigan bir qarorgoh zarur edi. Shu maqsadda Amir Temur 1370 yilning may oyida Samarqandga kaytadi va shahar devorlari, kal’alar hamda saroylar bino qilishga kirishadi. Bunday qurilishlar Samarqand mo’g’ullar tomonidan vayron etilgandan keyin 150 yil utgach birinchi marta bunyod qilingan umumjumxuriy inshootlar edi. So’ngra u holdan toygan mamlakatda qonun va tartib ishlarini joriy etadi. Maxsus muntazam qo’shin tuzib, unga katta imtiyozlar beradi. Shu bilan

birga u o'z davlati chegaralarini mumkin qadar kengaytirishga kirishadi. Avval u Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi yerlarni birlashtirib, o'ziga buysundiradi.

Biroq bu davrda Amir Temur davlati uchun eng kuchli xavf Oltin O'rda edi. Endilikda Amir Temur Oltin O'rdaga zarba berib, uni kuchsizlantirishga jiddiy harakat qiladi. Uning ichki ziddiyatlaridan ustalik bilan foydalanadi. Lekin u Jo'chi ulusini o'z davlatiga qo'shib olish niyatida emas edi. Faqat Oltin O'rdaning Movarounnahrda tutashgan sharqiy qismini o'z ta'siri ostidagi xonlar tasarrufiga olib berish hamda Saroy Berka orqali o'tadigan karvon yo'lini Movarounnahr tomon burib yuborishni ko'zlaydi. Shu maqsadda Oq O'rda amirzodalaridan To'xtamishga bir necha bor harbiy yordam beradi. Biroq To'xtamish Amir Temurning ishonchini oqlamaydi. Oltin O'rda taxtiga ega bo'lgach, hatto u ochiqdan-ochiq unga qarshi kurashga o'tadi. Natijada, Amir Temur To'xtamishga qarshi uch marta qo'shin tortishga majbur bo'ladi. 1389-yilda u Dizak (Jizzax)ning Achchiq mavzeida, 1391-yilning 18-iyunida (hozirgi Samara bilan Chistopol shaharlari oralig'ida joylashgan (Qunduzcha) Kondurcha daryosi vodiysida) To'xtamish qo'shiniga qaqshatqich zarba berdi<sup>15</sup>.

O'rta asrlarning bu ikki yirik sarkardalari qo'mondonlik qilgan ko'p mingkishilik ikki qo'shin o'rtasidagi so'nggi shiddatli jang 1395-yilning 15-aprelida Shimoliy Kavkazda Tarak daryosi bo'yida sodir bo'ldi. Amir Temur qo'shinini daryo bo'yida o'ziga qulay maydonda safga tortdi. Uning o'ng qanotini o'zi, so'l qanotini esa sevimli nabirasi Muhammad Sulton boshqardi. 27 qismdan iborat «bo'y xushuni» deb nomlangan saralangan qismni dushmanga favqulodda holatda zarba berish uchun pistirmaga qo'ydi. Jang To'xtamishning Oqtov, Bekyoriq va Kuncha o'g'lon boshliq jangovar qismlarining to'satdan Sohibqiron boshqarayotgan o'ng qanotga hujumidan

---

<sup>15</sup> A Muxammadjonov. O'zbekiston tarixi. T., "O'qituvchi", 1994, 94-bet..

boshlandi. Pistirmadagi qism dushmanga zarba berdi. So'ngra asosiy qismlar jangga kirdi. Shiddatli mahoraba (jang) bu gal ham uch kun davom etdi. Bu safar Amir Temur qo'shini dushmanga qarshi otdan tushib, uni kamondan o'qqa tutish usulini qo'yadi. Jangda ayniqsa, Muhammad Sulton, Shayx Nuriddin, Ollohdot, Amir Hoji Sayfuddin hamda amirzoda Rustamlar qahramonlik ko'rsatdilar. O'q va qilich zarbiga chiday olmagan To'xtamish qo'shinining safi bo'zilib, orqaga chekindi va tarqalib ketdi. To'xtamishxon sanoqligina askari bilan qochib changalzorga kirdi va ta'qib etib kelayotgan g'oliblardan berkindi. Shunday qilib, Amir Temur 1395-yil 15-aprelida Shimoliy Kavkazda Tarak daryosi bo'yida To'xtamish qo'shiniga qaqshatqich zarba beradi. Amir Temur harbiy yurishlari oqibatida Quyi Itil (Volga) viloyatlari, Saroy Saroychik va Hojitarxon (Astraxan) kabi shaharlar bo'ysundirildi. Amir Temur To'xtamishni quvib Ryazan viloyatigacha boradi va Yelets shahrini ishg'ol qiladi. So'ng Moskva tomon yuradi. Rossiya tarixchilari B.D.Grekov va A.Yu.Yakubovskiylarning ta'kidlashicha, Amir Temurning To'xtamish ustidan qozongan g'alabasi, faqat O'rta Osiyo uchun emas, balki butun Sharqiy Yevropa, shuningdek Rus knyazliklari uchun ham buyuk ahamiyat kasb etgan edi.

Ammo Mo'ng'uliston tomonidan bo'ladigan xavf hali bartaraf etilmagan edi. Amir Temur davlati uchun ayniqsa, Jo'ji ulusida qad ko'targan Oltin O'rda nihoyatda xavfli edi. Amir Temur va Oltin O'rda hukmdori To'xtamishxon o'rtasidagi urushlar haqida "Zafarnoma" asarida quyidagi ma'lumotlar keltirilgan:

### **Hazrat sohibqiron To'qtamishxon bila urushqoni**

Rajab oyining o'n beshida, dushanba kuni, torix yetti yuz to'qson uchda, qo'y yilida (18.06.1391)/ Qunduzcha mavze'ida To'qtamishxong'a yetib, cherikini orosta qilib, dushman sori mutavajjih bo'ldi. Ammo hazrat o'zi yurub, cherikni yetti qo'l tartib ettikim, hech podshoh andoq qilmaydur

erdi va eshitmaydur erdi. Va bu yetti adadida xosiyat ko' b turur va ko' b sir anda bor erdikim, andin sab'ul-masanining voqiflari andin xabardor erdilar<sup>16</sup>.

Bir qo'l Sulton Mahmudxon bo'ldi. Barcha bahodurlar bilakim: bari jangjo'y va bari nomdor. Va amir Sulaymonshohni boshlamish etti. Va ulug' qo'l tartib etib, shahzoda Muhammad Sultong'a topshurdi va ikki yonida bahodurlarni turg'uzdi.

Amir Temur saltanati bilan Oltin O'rda xonligi oralig'ida bu davrga kelib mustaqil bo'lib olgan Xorazm yerlarida Qo'ng'iro't so'filarining davlati qaror topgan edi. Qadimdan iqtisodiy va madaniy jihatdan Movarounnahr bilan bevosita bog'liq bo'lgan Xorazm mo'ng'ullar davrida ikki qismga ajralib, markazi Urganch shahri bo'lgan Shimoliy Xorazm Oltin O'rdaga, markazi Kat qal'asi bo'lgan Janubiy Xorazm esa Chig'atoy ulusiga bo'yso'ngan. XIV asrning 60-yillari oxirida Oltin O'rdada yuz bergan g'alayonlar vaqtida Qo'ng'iro't so'filari Shimoliy Xorazmda yangi sulolaning mustaqil hukmronligini tiklab oladilar. So'ngra Kat va Xiva shaharlarini fath etib, Shimoliy Xorazm bilan Janubiy Xorazm yerlarini birlashtiradilar. Amir Temur esa butun Xorazmni Chig'atoy ulusining ajralmas qismi deb hisoblar edi. Shuning uchun u Xorazmni o'z davlatiga qo'shib olish siyosatini tutdi. 1372-yilda Amir Temur Xorazmga yurish qilib, uni egallaydi. Biroq tarixiy voqealarning taqozosi bilan Amir Temur Xorazmga besh marta harbiy yurish qildi. Xorazm 1388 yilda o'zil-kesil Temur davlatiga qo'shildi.

Shunday qilib, Amir Temur Movarounnahr va Xorazmda tarqoqlikga va o'zaro nizolarga zarba berib, Sirdaryo vohasidan to Orol dengizigacha bo'lgan yerlarda yashovchi xalqlarni yagona davlat tasarrufida birlashtiradi. Sohibqiron Amir Temur Xorazmga jami 5 marta yurish qilib, 1395 yilda Xorazmni o'z davlatiga qo'shib oldi. Bu haqda "Zafarnoma"da quyidagicha ma'lumot berilgan:

---

<sup>16</sup> Sharofiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma". T., "Sharq", 1997, 146-bet.



## **Hazrat sohibqiron ikkinchi qatla Xorazmg'a borg'oni**

Ul mahaldakim, Kayxusrav Xuttaloniyni tuttilar, Muhamadbek aning o'g'li erdi va Xizr Yasuriyning o'g'li Is'haq va Mahmudshoh Buxoriy uchalasi qochib, Xorazmg'a bordilar. Yusuf So'fiyg'a anda borg'onda dedilarkim: «Temurbekning so'ziga e'tiqod qilmag'aysen» va ancha so'zladilarkim, aning ko'nglini hazrat sohibqiron do'stlug'idin chiqardilar. Va alarning so'ziga kirib, muxolifat qilaboshladi va ahdu shartni buzub, kelib Kotni harob qildi va andag'i kishilarni bir-bir qildi. Ammo ro'zgor taajjub tili bila qulog'ig'a aytur erdi: «Mundoq qilmakim, bu ishdin pushaymoi bo'lg'ungdur»<sup>17</sup>.

Movarounnahr mo'g'ullardan ozod qilinib, bu qadimiy diyorda mustaqil davlat barpo ztilgan bo'lsada, mamlakatda xali barkdror tinchlik o'rnatilgan emas edi. Bir tomondan, ayrim viloyat amirlari Amir Temur hokimiyatini tan olishdan bosh tortib turgan bo'lsalar, ikkinchi tomondan, mamlakatning shar kiy va shimoliy hududlari notinch edi. Mutuliston bilan Ok, Urda Sharqiy Far Bona, Utror, Yassi (Turkiston) va Sayram shaharlariga xavf solib, bu hududlarga tez-tez xujum qilar va axrlini talon-toroj k'ilardi. Shuning uchun ham Amir Temur dastlabki yillarda mamlakat sarxadlarida xavfeizlikni ta'minlashga katta ahamiyat berdi, isyonchi amirlarga qarshi shafqatsiz ko'rash olib bordi. 1370 yilning ko'zi va 1371 yil bahorida Zinda Chashmga zarba berilib, Shiburg'on viloyati bo'ysundirildi. Balx va Toshkent viloyatlari ham Amir Temur hokimiyatini tan oladilar.

Bu orada Amir Temur Mutuliston hokimi Qamaruddin bilan to'qnashadi. Chunki bu davrda uning Movarounnahrga bo'lgan talonchilik xurujlari kuchayib ketgandi. 1370—1371 yillarda u Toshkent va Andijon ustiga bir necha bor bosqinlar qilib, kaytadi. 1376 yilda esa Qamaruddin hatto Farrona vodiysining talaygina qismini bosib oladi. Mamlakatning

---

<sup>17</sup> «Zafarnoma». 157-bet.

shimoli-sharqiy hududlariga nisbatan muttasil bo'lib turgan taxdidni bartaraf qilish uchun Amir Temur Qamaruddinga zarba berishga kirishadi. Yigirma yil (1371—1390) mobaynida Sohibqiron Mo'g'ulistonga yetti marta yurish qilib, Qamaruddin va Anqatura ustidan g'alaba qozonadi. Shu zaylda Amir Temur Movarounnahr va Xorazmda xukm surgan tarqoqlik, o'zaro nizo va Mo'g'uliston tomonidan bo'lib turgan tazyikxa chek qo'yadi. Bu haqda "Zafarnoma"da quyidagicha ma'lumot berilgan:

### **Hazrat sohibqiron Jeta sori yana cherik yibargoni**

Hazrat sohibsiron o'shul yilda (1390) Sulaymonshohbek bila Xudoydodi Xusayniy va Shamsuddin Abbos va (uning) inisi amir Usmon va qo'shun beklaridin Siddiq Tobon va Sulton Sanjar — Hoji Sayfuddinbek o'g'li va Hasan Jondor va Tilak Qavchin va Iyd Xoja va Nusrat Qimoriy va To'kal Bavurchini yigirmi ming kishi bilan Jeta sori yibardi. Alar Sayhun suyidin kechib, Toshkanddin o'tub, Issi Ko'lg'a yettilar. Va amirzoda Umarshayx taqi amir Malash Apardiy va buning o'g'li Takash va otasi Sadr Turkmonni besh ming kishi bilan yibardi. Alar Andigondin kelib, bu beklarga qo'shuldilar pa Ko'kto'bag'a yetib, necha kun anda tavaqquf qildilar. Va a'dolarning ahvolini surushturub, otlarining izin topib, Archatav tog'ining yo'lidin yurub, harkim dushmandin uchradi, o'ldurdilar va bu tariq bila yozida yurur erdilar. Bas Almalig'din o'tub, Ila suyidin kechib, Qaro Tolg'a yettilar, Xojibek Jeta va Anka To'raning yurti erdi. Anda xabar toptilarkim, Elchi Bug'a Majalkachi to'rt yuz kishi bilan ilgari borib erdikim, dushmanlardin xabar tobqaylar, yulda ov solib, ovg'a mashg'ul ermishlarkim, Qamariddin Jetag'a uchrab tururlar. Qattig' urush etib, ikki tarafdin ko'b kishi talaf bo'lub turur. Va xabarning tahqiqi uchun Hasan Jondor va Malash va Takashni yibardilar. Bular yurub, ul yerdakim, urush voqi' bo'lub erdi, yettilar va o'lgonlarii ko'rub, tafaxxus etib, o'luklarning ichida bir zaxmliq kishini toptilarkim, hanuz tirik erdi. Va qirq kun

ermishkim, o't bilan kun kechurgon ermish. Ani taom va osh-suv berib, beklar qoshig'a kelturdilar<sup>18</sup>. Va andin ahvol so'rub, dedikim: «Qamaridding'a uchrab urushtuk va ko'b kishi ham bizdin va ham alardin o'ldi va bizning kishi qochti. Qamariddin Ichin Yuvsin cahrog'a kirib bordi». Beklar bu so'zni eshitib, tavaqquf qilmay Qamariddiniing keynida tushub, Ichin Yuvsindin o'tub, O'gar Kechtig'a yettilar. O'g'ruqni anda qo'yub, ilg'or solib, Irtish suyig'a yettilar. Va Qamariddin suvdin kechib, To'lasqakim, sammur va qoqum anda bo'lur, bordi. Beklar suvg'a yetib, sollar va amdlarkim, Qamariddin kishisi suvdin o'tkan turur, (ko'rdilar). Pek yaxshi bahodur yigitlarini suvdin nari o'tkarib, andag'i (sanavbari oliy) yag'ochlarda tamg'alarini torttilar.

Amir Temur tomonidan Oltin O'rda va Mo'g'ulistondagi jeta ulusining mag'lubiyatga uchratilishi bevosita Movaronnuharning tashqi dushmanlar xujumidan xalos qildi. Amir Temur Oltin Urdaga zarba berib, uni kuchsizlantirishga jiddiy harakat qiladi. Uning ichki ziddiyatlaridan ustalik bilan foydalanadi. Lekin u Juji ulusini o'z davlatiga qo'shib olish niyatida emas edi. Fakat Oltin Urdaning Movarounnahrğa tutashgan sharqiy qismini uz ta'siri ostidagi Horazm tasarrufiga olib berish hamda Saroy Berka orqali o'tadigan karvon yo'lini Movarounnahr tomon burib yuborishni kuzlaydi.

Movarounnahr mo'g'ullardan ozod qilinib, bu kadimiy diyorda mustaqil davlat barpo etilgan bo'lsa-da, mamlakatda hali barqaror tinchlik o'rnatilgan emas edi. Bir tomondan, ayrim viloyat amirlari Amir Temur hokimiyatini tan olishdan bosh tortib turgan bo'lsalar, ikkinchi tomondan, mamlakatning sharqay va shimoliy hududdari notinch edi. Mo'g'uliston bilan Ok.Urda Sharqay Fargona, Utror, Yasen (Turkiston) va Sayram shaharlariga xavf solyb, bu hududlarga tez-tez xujum k.ilar va axrlini talon-toroj kilardi. IIIuning uchun ham Amir Temur dastlabki yillarda mamlakat sarxadlarida

---

<sup>18</sup> Sharofiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma". T., "Sharq", 1997, 176-bet.

xavfeizlikni ta'minlashga katta ahamiyat berdi, isyonchi amirlarga karshi shafkatsiz ko'rash olib bordi. 1370 yilning ko'zi va 1371 yil bahorida Zinda Chashmga zarba berilib, Shiburg'on viloyati buysundirildi. Balx va Toshkent viloyatlari ham Amir Temur hokimiyatini tan oladilar.

Bu orada Amir Temur Mo'g'uliston hokimi Qamaruddin bilan to'qnashadi. Chunki bu davrda uning Movarounnahrda bo'lgan talonchilik xurujlari kuchayib ketgandi. 1370—1371 yillarda u Toshkent va Andijon ustiga bir necha bor bosqinlar qilib, qaytadi. 1376 yilda esa Qamaruddin xatto Fargona vodiysining talaygina qismini bosib oladi. Mamlakatning shimoli-sharqiy hududlariga nisbatan muttasil bo'lib turgan taxdidni bartaraf qilish uchun Amir Temur Qamaruddinga zarba berishga kirishadi. Yigirma yil (1371—1390) mobaynida Sohbqiron Mo'g'ulistonga yetti marta yurish qilib, Qamaruddin va Ankatura ustidan g'alaba qozonadi. Shu zayilda Amir Temur Movarounnahr va Xorazmda hukm surgan tarqoqlik, o'zaro nizo va Mo'g'uliston tomonidan bo'lib turgan tazyiqqa chek qo'yadi.

Amir Temur zamonasining buyuk saltanatini barpo qilgan bo'lsada, ammo u o'zini bu davlatning «qonuniy» xoni deb umrbod e'lon qilmadi. Chunki u nasl-nasabi jihatidan chingiziylar sulolasiga mansub emas edi. Shuning uchun ham chingiziylar tomonidan belgilangan an'anaga ko'ra Amir Temur avval o'z huzurida Suyurg'atmishni (1370—1388), uning vafotidan keyin esa, Suyurg'atmishning o'g'li Sulton Mahmudni (1388—1402) rasmiy xon qilib ko'tarib, xatto umrining oxirigacha ularning nomidan yorliqlar chiqartiradi, pullar zarb etgiradi. Ammo har ikkala bu hukmdor nomigagina «xon» bo'lib, davlatning siyosiy hayotiga va Temur bergan farmoyishlarga mutlaqo aralashmasdilar. Shunga qaramasdan, Temur mamlakatda o'zining bevosita hukmronligiga qonuniy tus berib, uni mustahkamlab olish maqsadida Amir Xusaynning tul xotini Saroymulkxonimga uylanadi. Saroymulkxonim Movarouinahrning Chig'atoy xonadonidan chiqqan so'nggi

xoni — chingiziylar avlodi Qazonxonning qizi edi. 1370 yilda Saroymulkxonim bilan bo'lgan nikoxi tufayli Temur o'zining amirlik darajasiga «ko'ragon», ya'ni «xonning kuyovi» unvonini qo'shib oladi va rasmiy xujjatlarda «Amir Temur Ko'ragoniy» nomi bilan yuritilishiga musharraf bo'ladi.

Temurning o'lkan saltanati shaklan buyuk va qudratli davlat bo'lib ko'rinsa ham aslida uning iqtisodiy negizi zaif edi. Temur bosib olingan viloyatlarni o'g'illari, nabiralari va xizmat ko'rsatgan amirlarga suyurg'ol tarzida in'om qilib, ular orqali boshqardi. Movarounnahrdan tashqari o'z tasarrufidagi barcha viloyat va mamlakatlarni Temur to'rt ulusga bo'ldi. To'ng'ich o'g'li Muhammad Jahongirga Balx viloyati bilan 12 ming navkarlik qo'shin, ikkinchi o'g'li Umarshayxga Fors viloyati va 10 ming askar, uchinchi o'g'li Mironshohga Ozarbayjon, Iroq va Armaniston bilan 9 ming kishilik qo'shinni, kenja o'g'li Shoxruhga Xuroson, Jurjon, Mozandaron, Seiston bilan yetti ming askar berildi. Garchi uluslar markaziy hukumatga itoat etsalarda, ammo ular ma'lum mustaqillikka ega edilar. Ulus xukmdorlarining alohida-alohida davlat devonxonasi, qo'shini bo'lib, ular markaziy hukumatga tobeligi xirojning bir qismini Samarqandga yuborib turish va oliy hukmdor harbiy yurishlarida o'z qo'shini bilan qatnashish yoki talab qilingan askarni yuborib tafishdan iborat edi<sup>19</sup>.

Suyurg'ol Temur davlati tashqil etilishi arafasida joriy etilib, u «iqto» kabi ma'lum tuman yoki viloyatlarni G'arbdagi «feod» yoki «den» tarzida oliy hukmdor avlodlari va xizmat ko'rsatgan yuqori tabaqa zodagonlariga in'om tariqasida berilgan. Ba'zan suyurg'ol yerlari hukumatning farmoni bilan xatto avloddan-avlodga meros bo'lib ham o'tgan. Masalan, Temurning to'ng'ich o'g'li Jahongir vafotidan so'ng unga tegishli Balx viloyatiga Qobul,

---

<sup>19</sup> Amir Temur va uning dunyo tarixidagi o'rni. (Buyuk sohibqiron Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag'ishlangan xalq ilmiy konferensiyasi ma'ruzalari bayoni). S., 1996.

Bazna va Qondahorni qo'shib, marxumning o'g'li Pirmuhammadga beriladi. Shuningdek, Temur Umarshayxning o'g'li Rustamga Isfaxonni, Mironshohning o'g'li Abubakrga Bag'dodni suyurg'ol qiladi. Mana shu tarzda Movarounnahrda tashqari, mamlakat bir qancha bo'laklarga bo'linib ketadi. Viloyat hokimlari — shaxzodalar o'z tasarrufidagi uluslarda doimo iloji boricha mustaqil hukmronlik qilishga intilar edi. Markaziy hukumat esa, vaziyat jiddiylashgan paytlardagina ularning ichki ishlariga aralashar edi. Shubhasiz, suyurg'ol asosida qurilgan ulus tartibining g'oyatda kuchayishi oqibatida ayrim viloyatlarning ma'lum darajada mavqeining oshishiga olib kelgan va ichki nizolarni keltirib chiqargan. Temur hayotlik chog'idayoq mamlakatning uzoq, o'lkalaridagina emas, xatto uning markaziy viloyatlarida ham nizolar va urushlar bo'lib turgan. Pekin, katta xukuk. va imtiyozlarga ega bo'lgan, kuchli qo'shinga tayangan buyuk xukmdor ayrim viloyatlarning bebosh xokimlari tomonidan ko'tarilgan isyonlarni osongina bostira olardi. Shunday qilib, Temur saltanati viloyatlardagi mahalliy hukmronliklarning birlashmasi bo'lib, xakikiy markazlashish uchun u hali yetarli darajada na iqtisodiy, na siyosiy jihat-dan, biz uylaganimizdek, mustahkam poydevorga ega emas edi.

Amir Temur davrida davlatning markaziy ma'muriyati boshida devonbegi, uning yonida arkbegi (marosimlarni boshqaruvchi) hamda turt vazir turgan. Birinchi vazir yer soliqlari, chegara bojini undirish hamda mirshablik ishlarini bajargan. Ikkinchisi askarlar maoshi va oziq-ovkat ta'minotlari bilan shug'ullangan. Uchinchi vazir harbiylar, ularning lavozimu mansablarga tayinlanish va meros ishlariga qaragan. Turtinchisi saroy harajatlarini boshqargan. Temur davlat to'zilishi sohasida katta o'zgarishlarni amalga oshirmagan bo'lsada, har holda XIV ayerning birinchi yarmida mo'g'ul xoni Kebek hukmronlik qilgan davrda joriy etilgan mamlakatning harbiy-ma'muriy bo'linishini saqlab qoladi. Ammo davlatning ma'muriy

idora etish tarkibining takomiliga suyurg'olning keng tark.alishi to'sqinlik qiladi.

Amir Temur ichki va tashqi siyosatida asosan qo'shinga suyanar edi. Chunki, u harbiy kuch bilan zarb etilgan mamlakatlarni va asosan viloyatlarda yashovchi xalqlarni zo'rlik bilan tutib turardi. Shuning uchun ham u harbiy islohga, ayniqsa, qo'shin boshliqlarini tanlash va ularni tarbiyalash, lashkariy qismlar va ularning joylashish tartibi, navkar sarbozlarning qurollanishi hamda ichki intizom masalalariga nihoyatda katta ahamiyat berar edi. Shu boisdan Temur manbalarda zamonasining mashhur sarkardasi va eng yirik lashkarboshisi sifatida tilga olinadi. Uning harbiy iste'dodi, sarkardalik mahorati qo'shinlarning tuzilishida hamda Oltin Urda xoni Tuxtamish, Dexli sultoni Mahmud va Turkiya sultoni Boyazidlar bilan olib borgan janglarida va shiddatli maxorabalar maydonida qo'llagan «savkuljaysh» (strategiya) va jang qilish uslublari «ta'biyatuljaysh» (taktikalari) da namoyon bo'lgan.

Temur qo'shini o'ntalik askariy birikmalar asosida tuzilgan lashkarlardan iborat edi. Lashkar «tuman» — o'n minglik, «xazora» — minglik, «xushun» — yuzlik va «ayl» o'nlik birikmalariga bo'lingan. Tumanlarda askarlarning soni 10 ming, qo'shinda 100 ming nafardan ortiq bo'lgan. Temur o'n minglik lashkarni boshqarish uchun «tuman ogasi», minglik bo'linmalar uchun «mirixazora», yuzliklar uchun «xushunboshi» va o'nliklar uchun esa «aylboshi» kabi harbiy mansablarni ta'sis etadi. Ularning xaq-huquqlari, oylik maoshini belgilab beradi. Masalan, oddiy sipoxiy mingan otining bahosi barobarida, bahodirlar 2-4 ot barobarida, aylboshi qaramog'idagi navkarga nisbatan ikki barobar ko'p, yuzboshi o'nboshidan ikki barobar ko'p maosh olgan. Mingboshilarning maoshi mingboshinikidan uch barobar ortiq bo'lgan. Janglarda bahodirlik ko'rsatib g'alaba qozongan amir uchun in'omlar ham belgilab qo'yilgan. Masalan, qaysi bir amir biron

qo'shinni yengsa yoki mamlakat yoki viloyat zabt etsa u tug', nog'opa, bahodirlik martabasi, davlat kengashlariga bimalol kirish huquqi hamda biron sarxadning noibligi bilan siylangan.

Bo'linma boshliqlari — amirlar Temurga tobe bo'lgan qirq aymoq (qabila)dan un ikkitasi: barlos, argin, jaloir, to'lqichi, duldoiy, mutul, sulduz, tug'oy, qipchoq, arlot, totor va tarxonlar orasidan saylab olingan. Amirlik martabasi Temur faoliyatining dastlabki yillarida unga sodiq bo'lgan 313 nafar kishiga berilgan. Bulardan bittasi — amir ul-umaro, to'rttasi — beglar begi, yuztadan — mingboshi, yuzboshi va o'nboshi bo'lgan. Bulardan tashqari, yana o'n ikki nafar kishiga birinchidan to un ikkinchi darajali amirlik unvonlari berilgan. Un ikkinchi darajali amir odatda amir ul-umaroning noibi hisoblangan. Un ikki amirning har biriga bittadan bayroq va bittadan tog'opa, amir ul-umarog'a bir bayroq, nog'pa, o'n minglik qo'shin, tut, chortut va bypg'y (karnay) berilgan.

Bu nishonlar qo'shin bo'linmalarini ham farqlab turgan. Masalan, katta qizil bayroq qo'shin boshliga amir ul-umaro yoki beklar begining alomati edi. Ot yoli bog'langan nayzali uzun tut tuman og'asining, ikki tomonga kokillar osilgan ikki dul nog'ora yuzboshining alomati hisoblanardi. Otliq suvori qismlarni boshqarish uchun maxsus ajratilgan otliq egarlarining ikki tomoniga tabl-dovul osilib, jang paytlarida suvorilarni maxorabaga solish maqsadida bong urib ular qoqilgan.



## **2.2. Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida qo’shni mamlakat va o’lkalarning Amir Temur davlati tarkibiga kiritilishi bayoni.**

Amir Temur Movarounnahr va Xorazm yerlarini birlashtirish bilan qanoatlanmadi. Tez orada u qo’shni davlatlar va xalqlar ustiga yurish qilib, ularni o’ziga bo’ysundirish va markazlashgan buyuk saltanat barpo etishni o’z oldiga maqsad qilib qo’yadi. Bu davrda Oltin O’rda, Xuroson va Eronda hukm surgan ijtimoiy-siyosiy vaziyat uning uchun juda qo’l keladi. Sohibqiron harbiy yurishni Xurosondan boshlaydi. 1381-yili Amir Temur Hirotni egallaydi. Saraxs, Jom va Qavsiya shaharlari jangsiz taslim bo’ladi. 1381—1384-yillar davomida Eronning katta qismi bo’ysundiriladi. Amir Temur Eron, Ozarbayjon, Iroq, Shorn (Suriya) ustiga uch marta askar tortadi. Bu yurishlar tarixda uch yillik, besh yillik va yetti yillik urushlar nomi bilan shuhrat topadi. Uch yillik (1386—1388) harbiy yurishlar oqibatida Janubiy Ozarbayjon, Iroqning shimoliy qismi, Gurjiston va Armanistondagi (Van ko’li atrofidagi) yerlar egallanadi. U besh yillik (1392-1396) urushi davomida G’arbiy Eron, Iroqi Ajam va Kavkazni egallaydi. Ushbu yurishlar haqida Hofiz Ali Yazdiy “Zafarnoma”da quyidagi ma’lumotlarni yig’ib qoldirgan:

### **Xazrat sohibqiron uch yillik yarog’i bilan Eron sori borg’oni**

Bars yilda, torix yetti yuz sekson sekkizda (1386) sohibqironi gitisi ton Turondin Eron sori mutavajjih bo’ldi. Va xukm bo’ldikim, «Tavochilar viloyatlarga borib cherikka jar yetqursun!». Bu xukm bulg’ondin so’ng tavochilar yurub, cherikni jam’ etib, dargohi oliyda kelturdilar. Ul hazrat cherik jam’ bo’lg’ondin so’ng Sulaymonshohbekkim, Dovudbekning o’g’li erdi va Abbosbekni Movarounnahr viloyatlarini zabti uchun qo’ydikim,

viloyatdin xabardor bo'lg'aylar. Va o'zi davlat bila saodat yuzini Eron sori qilib otlandi<sup>20</sup>.

### **Hazrat sohibqiron Ozarbayjon sori mutavajjux bulg'oni**

Ul mahalda xazratga arz qildilarkim, Sulton Axmad Jaloyir cherik yig'ishturub Bag'doddin Tabrizga kelib turur. Hazrat sohibqiron o'g'ruqni cherik bila Shayx Ali Bahodurga tobshurub, saodat bila otlanib, bahodur yigitlari bila ilg'or solib, Tabrizga mutavajjih bo'ldi. Sulton Ahmad hazrat sohibkiron din habar topib, pashsha kibikim, yel qatida turolmag'ay, Tabrizdin qochib, Bag'dodqa bordi. Sohibqiron aing qochqonin bilib, Hoji Sayfuddinbek bila bir jamoat yigitlarni qo'shub, keyinida yibardi va alar Sulton Ahmad keyinig'a surub yettilar. Sulton Ahmad ko'rdikim, g'anim keynida yetti, bo'lg'on partolini ot va teva va xachirlarig'a solib, otu qamchin bila o'z boshin olib ketti. Zafarpanoh cheriki ul mol va partolini olg'ondin so'ng yana keynida tushub yuridilar. Shayx Ali Bahodurnung o'g'li Ilyos Xoja oz kishi bila Naxchivondin o'tub, Namakzor mavze'ida Sulton Ahmadqa yetti. Va aning bila ko'b kishi erdi qaytib, Ilyos Xoja bila urushti va asru qattiq urushub, ko'b kishi anda zaxmliq bo'ldilar. Va Ilyos Xojaga zaxmi tegdikim, qulog'i eshitmas bo'ldi. Bu sababdin Sulton Axmad qutulub, ul ma'rakadin jonin olib chiqdi. Va Ilyos Xoja ul zaxmdin ko'b jafotortib, oxirulamr sihat tobt<sup>21</sup>.

### **Xazrat sohibqiron Gurjiston sori borg'oni**

Bu mahaldakim, gurji kofirlarg'a yaqin yetib erdi, himmat yuzini ul sori qilib, Qars qal'asidin ko'chub, Oq Byg'pa mavze'ida tushti. Va ul mahalda asru sovuq qattiq erdi va kecha-kunduz qor yog'ar erdi. Andoq mahalda nusratshi'or cheriki Ketu — Tiflis yulidin borib, gurji kofirlariga yettilar. Gurjilar qal'aga kirib, berkitib o'lturub, urush asbobin tayyor

---

<sup>20</sup> Sharofiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma". T., "Sharq", 1997, 127-bet.

<sup>21</sup> Qarang: "Zafarnoma". 167-bet.

qildilar. Va ul qal'a [Tiflis] asru berk erdi. Hazrat Sohibqironning qulog'ig'a ilhom yettikim: Qotiluhum yuazzibbuhumu Llah bi aydikum va yuhzihum va yansurkum alayhil<sup>8</sup> urushqa farmon qildi. Beklar va bahodurlar hukm bila urush asbobin muhayye qilib, hisorni o'rtada olib, takbir va salavot deb hisorg'a yopushti va naqqora va nafir chalib, suron solib, qalqonlar va turalar boshlarig'a olib, urush soldilar.

### **Hazrat sohibqiron Qorobog' sori yonib borg'oni**

Hazrat andin ko'chub, saodat va davlat bila yo'lg'a kirib, har yerdakim, kofirlarg'a taalluq qal'alarkim bor erdi, nusratish'or cheriki qilich zarbi bila musaxxar qildilar; qal'alarini buzub, mollarini olib, hazratqa qo'shuldilar va kelib Sheki viloyatida tushtilar. Hazrat sohibqiron kuffordin xotirin jam' etib, nusratshi'or cherikini jamoat-jamoat har sori yibardi. Amir Jahonshoh ba'zi beklar bila lakzlarni chopib, taladi va ko'b kishi alardin o'lturdilar. Va amir /Muhammad Darvesh Barlos bir jamoat bila Sheki tog'ig'a kirib, ko'b kishi o'ldurub, mollarini taladilar. Arg'unshoh Axtachi va Ramazon Hoja bir jamoat bila Tangtug' viloyatig'a yetib, ko'b kishini o'ldurub, asir qilib taladilar<sup>22</sup>.

Amir Temurning Hindiston ustiga qilgan g'azovoti (1398-yil may — 1399-yil mart) qariyb o'n bir oy davom etadi. Hindistondan u katta o'lja, shu jumladan 120 ta jangovar fillar bilan qaytadi. O'ljalarning bir qismi qo'shinga tarqatilib, qolgani Samarqand va Kesh shaharlarida olib borilayotgan qurilishlarga ishlatiladi. Hindistonga qilgan yurishlari haqida "Zafarnoma"da quyidagicha ma'lumot keltirilgan:

---

<sup>22</sup> Sharofiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma". T., "Sharq", 1997, 177-bet.

## **Sohibqiron Maxmud Sultonkim, Hinduston viloyatining podshosi erdi, urushqoni zikri**

Sohibqironi dinparvar himmat yuzini Hinduston sori qo'yub, har yergakim yetti, fath qildi, nechukkim yuqori zikr qilduq. Rabi' al-oxir oyining yettisida (17.12.1398) saodat va iqbol bila o'tlanib, o'ng qo'l va so'l qo'ldagi shahzodalar va beklar barcha o'tlanib, yasol tortib, yer yuzini cherik tutub, dushmang'a tavajjuh qilib yuridilar<sup>23</sup>.

Dushman soridin taqi Sulton Mahmudkim, Feruzshohning nabirasi erdi, Malluxon, Tag'ayxon va amir Ali hind sardorlari bila o'n ming otliq va qirq ming yayog' bila barcha mukammal, musallah shahardin chiqib yasol tortib turdilar. Va alarning e'timodlari (yuz yigirmi) fillari bila erdi.

Va pillarni jayba kiydurub orosta qildilar. /Pillar ustida taxtlar qo'yub, ustida besh-olti tovak va taxish otquchilar turub erdilar. Va ra'd otquchilar pillarning yonlarida turub erdilar. Agarchi bu sipoh sahibqironning cheriki qoshida hech nima ko'runmas erdi. Ammo pilning salobatidin ba'zi ko'ngulsiz kishilar qo'rquq edilar. Fozillar va donishmandlarkim, doim hazrat qoshida mulozimatda erdilar, misli Xoja Fazl va shayxulislom Sa'd Jalol al-Haqq va-d-din Kashshiy va Mavlono Abduljabbor va Mavlono Nu'moniddin Xorazmiy, bas, sahibqiron bulardin shafqat yuzidin so'rdikim: «Sizlar qayda turarsizlar?» Alar pil vahmidin dedilarkim: «Andakim, xotunlarni turg'uzursiz!» Sohibqiron bildikim, bular qurqubturlar.

1399-1404-yillardagi yetti yillik urush eng shiddatli va eng yirik janglardan bo'lib, uning oqibatida Baalbek, Damashq (Damashq) kabi ilk shaharlari va Iroq Mabning Ubmiston o'lkasi bilan Bag'dod, shuningdek To'rtayan bittagina qismi firth etadi. Natijada ikki buyuk sarkarda Amir Temur bilan sulton Boyazid Yildirimlarning to'qnashuvi muqarrar bo'lib qoladi. Chunki tobora kuchayib borayotgan bu ikki turkiy davlatlarning har

---

<sup>23</sup> O'sha joyda.

biri ikkinchisi uchun nihoyatda kuchli raqibga aylangan edi. Bir tomondan, Yevropa ritsarlariga qaqshatqich zarba berib, Bolqon yarim oroli bo'ylab, g'arbga tomon o'z hududlarini kengaytirayotgan Usmonlilar davlati uchun Amir Temurning markazlashgan kuchli davlatini qaror topishi qanchalik xavfli tuyulsa, Kichik Osiyoda barpo etilgan qudratli Usmonlilar havlatining kuchayishidan Amir Temur ham shunchalik manfaatdor emas edi. Amir Temur hayot-mamot yo'lida Boyazid Yildirim bilan bo'ladigan jangga qariyb ikki yildan ortiq tayyorlanadi. Nihoyat Runga yuzlanib, avval Qamoh qal'asini fath etadi, so'ngra Anqara shahrini qamalga oladi.

Amir Temur bilan Sulton Boyazid qo'shinlari o'rtasidagi so'nggi va hal qiluvchi jang 1402-yil 20 iyulda Anqara yaqinida Chibukobod mavzeida sodir bo'ladi. Bu jang tarixda "Anqara jangi" nomi bilan shuhrat topadi. Uch kun davom etgan bu jangda har ikki tomondan hammasi bo'lib 360 ming nafar, shu jumladan Amir Temurning taxminan 200 ming, usmonlilar sultonining 160 ming askari qatnashadi. Janggohning qulay qismiga joylashtirilgan Sohibqiron qo'shini o'zining an'anaviy jangovar tartibi - yasolda harakat qiladi. Qo'shinning qirq qismdan iborat markaz — qo'lga Amir Temur bevosita o'zi qo'mondonlik qiladi. Uning o'ng qanotiga o'g'li Mironshoh Mirzo, nabiralari Muhammad Sulton, Pirmuhammad, Amir Shayx Nuriddinlar, so'l qanotiga kenja o'g'li Shohruh Mirzo, nabiralari Xalil Sulton, Rustam Bahodir, Amir Sulaymonshoh va Amir Shohmaliklar

rahbarlik qiladilar. Qo'shin markazi manglayida uchiga yarim oy shaklidagi oltin tug'ro o'rnatilib, to'riq ot yoli osilgan zangori davlat alami — bayrog'i muttasil hilpillab turardi. 30 ta jangovar fil jangga shay qilinib, ular ustida sovut va dubulg'a kiygan filbonlar bilan tirandoz va otashboz naftandozlar joylashgan edi. Markaz va qanotlar ortida Iskandar Mirzo boshliq zaxiradagi qismlar o'rin olib, ular jang holatini muttasil kuzatgan holda dushmanga to'satdan beriladigan hal qiluvchi zarbaga tayyor turardi.

Amir Temur qo'shini qarshisida Sulton Boyazidning Rum va Farang mamlakatlaridan to'plagan askarlari saf tortib turardi. O'ng qanotga sultonning qaynisi serb knyazi Lazarevich qo'mondonlik qiladi. Bu qo'shin 20 ming nafarli serb polklaridan tashqil topgan edi. Rum askarlaridan iborat qo'shinning so'l qanotini Boyazidning katta o'g'li Sulaymon Chalabiy boshqaradi. Bu qanot turk suvoriylari bilan kuchaytirilgan edi. Qo'shin markazida Boyazidning o'zi va uning orqasi — arergardida o'g'illari Musa, Iso va Mustafolarning harbiy qismlari joylashgan Anqara jangi Mironshoh Mirzoning dushmanni so'l qanotiga bergan kuchli zarbasi bilan boshlanadi. Biroq rumliklar matonat bilan qarshilik ko'rsatadilar. Jang-u jadal shiddat olib turgan pallada Boyazid askarlarining bir qismi hujumga bardosh bera olmay, jang maydonini tark etib qochadi. Dushman qo'shini saflarida paydo bo'lgan sarosimalikni payqagan Amir Temur barcha amirzodalar, umarolar va no'yonlarning birgalikda dushmanga hujum qilishiga amr qiladi. Uzoq davom etgan shiddatli jangda Sohibqiron kuchlarining siquviga bardoshi qolmagan sulton askarlari chekinishga majbur bo'ladilar. Boyazid qo'mondonligidagi jangchilar qattiq turib qarshilik ko'rsatadilar. Turk yanicho'rlarining birontasi ham qolmaydi, barchasi qirib tashlanadi. Suyurg'atmishxonning o'g'li Mahmudxon Boyazidni asirga oladi. Uning bilan birga o'g'li Musa Chalabiy ham asirga tushadi. Amir Temur rumlik askarlarni ta'qib etib Anado 'lu yarim orolini egallaydi, O'rta Yer dengizining sharqiy sohilida joylashgan Izmir shahrini zabt etadi va salibchilarning Yaqin Sharqdagi oxirgi qarorgohiga barham beradi. Amir Temurga Misr ham o'z itoatkorligini izhor etadi. Amir Temur Bursada—Vizantiya va butun nasoro olamidan Boyazidga yig'ib berilgan bojlardan to'plangan katta o'ljani qo'lga kiritadi. Birgina Bursa shahridan olingan oltin va javohirlar kattagina karvonga yuk bo'lar edi<sup>24</sup>.

---

<sup>24</sup> Amir Temur va uning dunyo tarixidagi o'rni. (Buyuk sohibqiron Amir Temur tavalludining 660 yilligiga

Boyazid Yildirim qo'lga tushirilib, o'rdugohga (lager) olib kelinganda, o'z g'animiga shohona hurmat va ehtirom ko'rsatgan Sohibqiron turk sultoni vafotidan so'ng (1403-y. 9-mart) uning vorislariga himmat ko'zi bilan boqadi va ularga beqiyos muruvvatlar qiladi. Uning o'g'illari Sulaymon, Iso va Musalarga otasini yerlarini suyurg'ol qilib, in'om qiladi. Amir Temur Usmonli turklar davlatini butunlay bosib olish niyatida emas edi. Vaholanki salib yurishlarining oqibatlari, Yevropa davlatlalarining Yaqin Sharq mamlakatlaridagi umidlari hali musulmon olami yodidan ko'tarilmagan edi. Shuning uchun ham Amir Temur Usmonli torklari davlatini saqlab qoldi va Boyazid vorislariga muruvvat qo'lini cho'zdi. Shunday bo'lsa-da, Boyazid ustidan qozonilgan buyuk g'alaba bilan Amir Temurni Fransiya qiroli Karl VI (1380-1422), Angliya qiroli Genrix IV (1399-1413) hamda Kastiliya va Leon qiroli Genrix III (1390-1407) tabriklab, unga o'z muborak nomalarini yuboradilar. Chunki Sohibqiron endigina uyg'onayotgan Yevropaga o'lkan xavf solib turgan Usmonli turklar davlatiga zaiba berib, butun Yevropaning xaloskoriga aylangan edi.

Kichik Osiyodan Samarqandga qaytgan Amir Temur 1404-yilning 27-noyabrida 200 ming qo'shin bilan Samarqanddan Xitoy safariga chiqdi. Biroq Xitoy ustiga yurish Amir Temurning to'satdan vafot etib qolishi (1405-y. 18-fevral) tufayli amalga oshmay qoldi.

Amir Temur 35 yil davomida mamlakatni boshqardi. Ko'pdan-ko'p harbiy yurishlar va jang-u jadallarni amalga oshirdi. Ko'p mamlakatlar zabt etildi. Oqibatda Hindiston hamda Xitoydan Qora dengizga qadar va Orol dengizidan Fors qo'ltig'iga qadar bo'lgan g'oyat katta hududni qamrab olgan o'lkan saltanatni vujudga keltirdi. Bundan tashqari, Kichik Osiyo, Suriya, Misr va Quyi Volga, Don bo'ylari, Balxash ko'li va Ila daryosi, Shimoliy Hindistongacha bo'lgan mamlakatlarni o'ziga bo'ysundirdi. Bu

mamlakatlardan Amir Temur katta o'ljalar bilan bir qatorda ko'zga ko'ringan olimlar, hunarmandlar va mohir ustalarni Samarqand, Shahrisabz va Buxoroga ko'chirib olib keldi. Bu shahar va qishloqlar obod qilindi. U nafaqat Movarounnahr va Turkistonni obod qildi, balki bo'ysundirilgan mamlakatlarning shaharlarini ham qayta qurirdi. Bag'dod, Darband va Baylakon shaharlarini qayta tikladi. Karvon yo'llarida rabotlar, qal'alar, ko'priklar, shaharlarda masjid va madrasalar hamda bog'-u bo'stonlar barpo etdi. Eng muhimi Eron, Ozarbayjon va Iroqdagi feodal tarqoqlik va boshboshdoqlikka barhafl berib, Sharq bilan G'arbn bo'g'lovchi qadimiy karvon yo'llarini tikladi. Bu bilan nafaqat Movarounnahr, balki Uzoq va Yaqin Sharq mamlakatlarining iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga xalqlar va mamlakatlarni bir-biri bilan yaqinlashtirishga o'lgan hissa qo'shdi. Amir Temur Yevropaning Fransiya, Angliya va Kastiliya kabi yirik qirolliklari bilan bevosita savdo va diplomatik aloqalar o'rnatdi.

Amir Temurning harbiy yurishlari, jang-u jadallarining oqibatlariga baho berilar ekan, shuni ta'kidlash kerakki, uning faoliyati qo'yilgan maqsad va rejalari jihatidan ikki bosqich hisoblanadi. Birinchi bosqich (1360-1386) da Amir Temur Movarounnahrda markazlashgan davlat to'zish yo'lida ko'rashdi. Amir Temurning bu davrdagi faoliyati O'rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti taraqqiyoti yo'lida shubhasiz o'lgan ijobiy ahamiyat kasb etdi.

Feodal tarqoqlik tugatilib, markazlashgan davlatning tashqil topishi ijobiy oqibatlarga olib keldi. Mamlakat ishlab chiqarish kuchlarini va mo'ng'ullarning bir yarim asrlik hukmronligi natijasida bo'xronga uchragan iqtisodni tiklash uchun qulay sharoit vujudga keldi. Ayni vaqtda xo'jalikning asosi bo'lgan sug'orma dehqonchilikda muayyan siljishlar ro'y berdi. Yangi-yangi kanallar qazilib, sug'orma dehqonchilik maydonlari kengaydi.



Hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo rivojlandi, fan va madaniyat ravnaq topib, shaharlar obodlashdi va gavjumlashdi<sup>25</sup>.

Amir Temur faoliyatining ikkinchi bosqichi (1386—1405) da olib borilgan «uch yillik», «besh yillik» va «yetti yillik» harbiy yurishlarni amalga oshirib, Oltin O'rda, Eron, Iroq, Kavkazda Kichik Osiyo, Misr va Hindistonni zabt etdi. Amir Temurning harbiy faoliyati teranroq talqin etilib, unga baho beriladigan bo'lsa, shuni ta'kidlash joizki, u avvalo Osiyo sarkardasi edi. U o'zining g'olib askarlari va qurollaridan o'z zamonasining taomili bo'yicha foydalandi. To'g'ri, jazo nihoyatda qattiq, ammo ko'pincha adolatli bo'lgan. Xullas, Sohibqiron o'rta asrlarda shakllanib rivoj topgan feodal jamiyatining murakkab siymosi edi. U yuksak harbiy daholik va qat'iyatlik bilan o'z jamiyatiga sidqidildan xizmat qildi. Shu boisdan tarixchilar Amir Temurni Iskandar Zulqarnayn (makedoniyalik Iskandar), Qaysar (Yuliy Sezar) va boshqa tarixiy daholarga qiyos qilib, ular bilan bir safga qo'yadilar.

---

<sup>25</sup> A.Muxammadjonov. O'zbekiston tarixi. T., "O'qituvchi", 1994, 79-bet.

### **III-Bob: “Amir Temur shaxsini o’rganishda Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarining roli va ahamiyati” mavzusini tarix darslarida o’rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarda foydalanish usullari**

Mustaqillikka erishgach xur Vatanimiz O’zbekistonda barcha jabxalarda tub islohatlar va o’zgarishlar boshlab yuborildi. Sobiq sho’ro tizimidan qolgan o’z davrini o’tab bo’lgan boshqaruv tartibi va jamiyatdagi turli xil illatlarni chuqur islohatlar bilangina zamon talablari ruxiga moslashtirish mumkin edi.<sup>26</sup> Demak, jamiyatimizning barcha sohalarida yangilanishlar islohatlar borar ekan bu sohada ta’lim tizimi ham chetda qolmadi. Islohatlar boshlanib davlat miqyosidagi ta’lim islohatlarining erkin ifodasi 1997 yil 29 avgustdagi Oliy Majlisning 9-sessiyasida namoyon bo’ldi. Prezidentimiz “Har tomonlama yetuk va barkamol avlodni yetishtirishda” maorif tizimini o’rniga aloxida to’xtaldilar.<sup>27</sup> Parlamentimizda qabul qilingan 34 moddadan iborat “Ta’lim to’g’risidagi qonun” va uning ijrosini ta’minlaydigan “Milliy dastur” qabul qilinishi ta’limda tub islohatlarni belgilovchi dastur bo’lib xizmat qildi. “Ta’lim to’g’risidagi qonun”<sup>28</sup> va “Milliy dastur” asosida davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish ta’lim to’g’risidagi yagona standart me’yorlariga amal qilishga sabab bo’ldi. Standart asosida turli xilda noan’anaviy dars o’tish usullari jaxon ta’lim tizimini o’zini oqlagan eng ilg’or pedagogik usullarni qo’llash takomillashib bordi. Davlat ta’lim standartlari asosida keng ma’lumotlarni o’z ichiga olgan zamonaviy o’quv qo’llanmalari nashr etilib o’quvchilar qo’liga yetib kela boshladi. Bu darsliklar talabga to’liq javob bera oladi desak bo’ladi. Darsliklarni mavzu aniq va lo’nda berilgan sanalar bir-biriga bog’langan, mavzu esa qo’shimcha ma’lumotlar (xujjat, xikoya, asardan parcha) asosida mustahkamlangan. O’quvchi uchun har tomonlama o’rganishi uchun qulaydir.

---

<sup>26</sup> Davlat ta’lim standartlari. T. 1999.

<sup>27</sup> I.Karimov. Barkamol avlod O’zbekiston kelajagining poydevori. T, 1997. 14-bet.

<sup>28</sup> O’zbekistonning ta’lim to’g’risidagi qonuni. T, 1997.



### **3.1.Mavzuni o'tishda noan'anaviy usullardan foydalanish.**

Noan'anaviy uslub-yangi pedagogik texnologiya asosida dars o'tishdir. Noan'anaviy dars uslubida an'anaviy dars uslubidan farqli ravishda barcha o'quvchilar faol ishtirok etadilar. Hozirgi kunda noan'anaviy dars o'tishning bir qancha metodlari ishlab chiqilib, ta'lim tizimiga kiritilayapti.

Darsni noan'anaviy uslubda tashqil qilishda shu yangi metodlardan bir nechtasini ko'rib chikamiz. Umid kilamizki bu metodlar o'quvchi o'zlashtirishi jarayoniga ijobiy tasirini ko'rastadi.

Dars uslubi: noan'anaviy;

Dars uslubi: interfaol: amaliy uyinlar, o'zaro taʼsir;

Dars jihozlari:

1. O'zbekiston tarixi darsligi.

2. Harita.

3. Rasm.

Tarqatma material.

Bu o'quvchilarning o'tgan darsda olgan bilimlari darajasini aniqlash maqsadida to'zilgan.

I. Tashqiliy qism (3 minut)

O'quvchilarni darsga jalb etish. Ularni duneda ruy bergan eng muhim siyosiy voqealardan xabardor qilish.

11. O'tilgan dars mavzusini takrorlash. (8 minut)

Bu vazifa "Baxtli tasodif" usuli yordamida bajariladi. Bunda o'quvchilarning uy vazifasini nechog'lik tayyorlaganlik darajasini aniqlash imkoniyati yaraladi. Guruxda o'quvchilar soniga karab, masalan 25 ta tarqatma material tayyorlanadi. Har birida mavzu yuzasidan 1tadan yoki 2tadan savollar yoziladi. Faqat 1ta kartochkaga savol urniga "Siz yutuq egasisiz "5" baho deb yoziladi.

## **Tarqatma material.**

### **Baxtli tasodif 1**

1. Amir sohibqironning hayoti va faoliyati haqida gapirib bering.
2. Temur va Temuriylar davri tarixi.

### **Baxtli tasodif 2**

Temurning harbiy yurishlari haqida gapirish;

Sharafuddin o'z hayotida bajargan ikki sharaflı ishi haqida qisqacha ma'lumot.

### **Baxtli tasodif 3**

1. "Zafarnoma" asari haqida gapirib bering.
2. Sharafuddin asarining debochasida nechanchi yilda yozib tugatdi?

### **Baxtli tasodif 4**

1. Asarda nechanchi asrga xos bo'lgan boy geografik ma'lumotlar keltirilgan?
2. Temurning «uch yillik», «besh yillik» va «yetti yillik» yurish janglarida va boshqa bu atamalarga kirmagan urushlaridan oldiga qo'ygan maqsadi nima edi?

### **Baxtli tasodif 5**

1. Temur harbiy yurishlarining qanday sababi bor edi?
2. Amir Temurning Movarounnahrni birlashtirish yo'lidagi dastlabki harakati nechanchi yillarda boshlanadi.?

### **Baxtli tasodif b**

1. Siz yutuq egasisiz "5" baho.

### **Baxtli tasodif 7**

1. Amir Temur 1395-yil 15-aprelida Shimoliy Kavkazda Tarak daryosi bo'yida kimlarga qarshi qaqshatqich zarba beradi.?
2. Amir Temur davrida davlatning markaziy ma'muriyati boshida kimlar turgan?

### III. Янги dars mavzusi mazmuni ustida ishlash. (13 minut)

Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirishda o'qituvchi xikoya-suxbat usulidan foydalanadi. Bu vazifa quyidagi reja asosida bajariladi:

1. Amir Temur ichki va tashqi siyosatida kimlarga suyanar edi?
2. G'iyosiddin Ali ibn Jamol Yazdiy «Hindistonning g'azavoti ruznoma»sini nechanchi yilda yozib, Temurga taqdim etgan.?
3. Angliya kapitalizmi tarakkiyotining o'ziga xos xususiyatlari?
4. Sharafuddin Ali Yazdiy qayerda tug'ilgan.?

Bu reja bilan o'quvchilar oldindan tanishib chiqadilar. Darslik matni bilan ham avvaldan tanishib, o'rganib oladilar. O'qituvchi esa faqatgina qo'shimcha ma'lumotlarni o'quvchiga yetkazib berishga harakat qiladi va shu bilan mavzu mohiyati chuqurroq ochiladi. Shundan so'ng o'qituvchi o'quvchilarning boshlangich bilimini aniqlash maqsadida "Akliy xujum" uyushtiradi-Savollar va javoblar:

1. Sharafuddin Ali Yazdiyning asosiy sharaflari nima edi? - «Zafarnoma»sini yaratishidir.
2. Gladston kim? - Liberallar partiyasi rahbari.
3. Muallif o'z asarini birinchi nima ataydi? - maqola.
4. Asar nima bilan boshlangan?- turk xonlarining shajarasi va Chingizxon tarixiga bag'ishlangan o'ltin (82 varaq) Muqaddima bilan.
5. Angliyaning jaxonda yetakchiligi o'zgarib borgan, degan tamoyilga asoslangan partiya? - liberallar.
6. Amir Temur tarixiga bag'ishlangan asarlarning eng haqiqatga yaqini qaysi? - «Zafarnoma».
7. Asarning oxirgi o'zbekcha tarjimasi qachon va kim tomonidan yozilgan? - 1826 yili Shermuhammad Munisning tavsiyasi bilan Xivada Xudoyberdi ibn Hushmuhammad Sufi tomonidan.
- 8- Axolisiniig soni? - 37- mln. kishi.

9- Asarda nechanchi xos bo'lgan boy geografik ma'lumotlar keltirilgan? - XIV asrga.

10.Chig'atoy ulusining bek va amirlari, viloyat va tumanlarning zodagonlari hamda Termizning xonzodalari, shuningdek, Amir Temurning piri Sayyid Baraka ishtirokida nenchanchi yilda qurultoy o'tkaziladi.? -

1370 yilning 11 aprelida.

E'tibor beradigan bo'lsak, "Akliy xujum"ga daqiqa berilmoqda. O'quvchilar savollarga albatta shunday javob qaytarsalar, nur ustiga a'lo nur bo'ladi. Lekin ular baribir o'quvchi. Hamma narsani esda saqlab qola olmaydilar. Shu tufayli o'qituvchining o'quvchilar javobiga aniqlik kiritishi va to'ldirishi maqsadga muvofiqdir.

V. Guruxlarda ishlash( 14 minut)

O'quvchilar uch guruhga bo'linishadi. O'qituvchi har bir guruhga alohida topshiriq tayyorlab keladi.

### **1-guruxga topshiriq:**

Masalan bu guruxga tayanch tushunchalardan matn to'zish vazifasi topshiriladi.

### **2-guruxga topshiriq:**

Bu guruxga esa mavzu yuzasidan muhim tarixiy sanalar xronologiyasini yaratish topshiriladi.

### **3-turuxga topshiriq:**

Bu guruxlarimizga Amir Temur va uning yurish qilgan hududlariga klaster chizish.

O'ylaymizki, har bir guruxga alohida topshiriq berilishi guruhlar o'rtasida raqobatni kuchaytiradi, gurux a'zolari faolligini oshiradi. Og'zaki va yozma nutqining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

**Guruxlar uz vazifalarini shunday bajarishlari mumkin.**

### **1-gurux:**

Muhammad Ali asar boshida o'zining kirish so'zini keltiradi va asardagi eng birinchi sarlavhasini «Temurbekning mo'tavallud bo'lg'oni va olamni o'z jamoli bila yaruq qilgani so'zlari» deb ataydi. Bu esa forscha matnning 86-varaqadagi sarlavhaga mos keladi. Asar davomida Temurning o'zi haqida ko'pdan-ko'p biografik ma'lumotlar keltirilganligi uchun uni faqat Amirning g'alabalari tavsifi emas, balki hayotnomasi deb atash mumkin. Asarda Amirning barcha oila a'zolari va qarindosh-urug'lari haqida ham ko'plab ma'lumotlar keltiriladi.

## **2-gurux:**

hijriy 804 melodiy 1401-02 yili - Amir Temur harbiy yurishlari

1404 yil yil – asar yozib tugatildi.

1428-29 yili - mo'g'ul xoni Yunusxonni asir qilgan.

hijriy 828 yili melodiy 1424-25 – “Zafarnoma” asari yozib tugatildi.

## **VI. "Turtinchisi ortiqcha" uyini. (2-minut)**

Bu o'yinni dars ohirida tashqil qilsa bo'ladi. Bunda o'quvchilarning yangi dars mazmunini qanchalik o'zlashtirganliklari aniqlanadi. O'qituvchi o'yin topshirig'ini tarqatadi. Har bir topshiriqda bittadan ortiqcha fakt bo'ladi. Guruxlar bir necha soniya ichida 4ta faktdagi ortiqchasini topadi.

## **VII. Dars yakunini chiqarish. (3-minut)**

Darsda nimalarga erishilganligi ta'kidlandi. Faol gurux, faol o'quvchilar rag'batlantiriladi.

## **VIII. Uyga vazifa: (2-minut)**

Mavzu oxiridagi savollarga javob topish, Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asari xaqida ma'lumotlarni to'plab kelish. Keyingi mavzu bilan tanishishi.



## Xulosa

Sohibqiron Amir Temur tarixi haqida ma'lumot beruvchi ko'plab yozma manbalar ichida "Temur tuzuklari", Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" va Sharofiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarlari muhim ahamiyatga egadir. Amir Temurning ko'p yillik harbiy yurishlari, shahar va qishloqlardagi obodonchilik ishlari haqida mukammal asarni Sharafuddin Ali Yazdiy yaratdi. Sharafuddin ham G'iyosiddin Ali kabi Eron zamindagi Fors viloyatining shimolidagi Yazd shahrida tug'ilgan. U obdon zukkoligi va donoligi bilan Temuriylarning diqqatini o'ziga jalb qiladi. Sharafuddin bir necha yil Xirotda Shohrux mirzoning hamda Forsda uning kichik o'g'li Ibrohim Sultonning saroyida hizmat qiladi. U she'riyat, falsafa va ilmi nujumdan obdon habardor olim edi. «Sharaf» taxallusi bilan she'rlar bitar edi. Sharafuddin o'z hayotida bajargan ikki sharaflı ishining biri shu ediki, Ulug'bek harbiy yurishlarining birida hijriy 832 melodiy 1428-29 yili yosh mo'g'ul xoni Yunusxonni asir qilganida Shohruxning buyrug'i bilan Sharafuddin asir xonning ustozı etib tayinlanadi. Sharafuddin bir muddat Yunusxon bilan Yazdda yashab, uning tarbiyasi bilan shug'ullanadi va aftidan, o'z bilimlaridan unga ancha singdira olgan. Ana shu yosh xon keyinchalik Hindistonda uch asrdan ko'proq hukm surgan Temuriylar sulolasining asoschisi Zahiriddin Muhammad Boburning ona tarafidan bo'lajak bobosi edi<sup>29</sup>.

Sharafuddin Ali Yazdiyning ikkinchi va asosiy sharaflı ishi — uning o'z «Zafarnoma»sini yaratishidir. Sharafuddin asarining debochasida ko'rsatishicha, uni hijriy 828 yili melodiy 1424-25 yozib tugatgan. Shu tarix Abdurazzoq Samarqandiyning «Matlai sa'dayi va majmai bahrayn» asarida ham ko'rsatilgan. Asar Amirning mufassal va shaxzoda Xalil Sultonning

---

<sup>29</sup> Amir Temur va uning dunyo tarixidagi o'rni. (Buyuk sohibqiron Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag'ishlangan xalq ilmiy konferensiyasi ma'ruzalari bayoni). S., 1996.

qisqacha tarixidan iborat bo'lib, zamondoshlariga o'ta manzur bo'lgan. Bu asarga asos bo'lgan ilk nusxani Temurning saroy kundaliklari va boshqa manbalar asosida va saroy kotiblarining yordamida Ibrohim Sulton yozgan. Bu nusxani qayta ishlab va yana boshqa manbalardan foydalanib Sharafuddin o'z «Zafarnoma»sini yaratgan. Muallif o'z asarini birinchi maqola deb ataydi va Shohruxga atalgan ikkinchi maqola hamda Ibrohim Sultonga atalgan uchinchi maqolani yozishni ham rejalashtirib qo'yadi. Bu hol matnda ham o'z aksini topgan va o'quvchi quyida buning guvohi bo'ladi.

Bitiruv – malakaviy ishining birinchi bobida Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarining yaratilishi, asardagi tarixiy voqealar tahlil qilingan. Jumladan, «Zafarnoma» faqat sohibqironning harbiy yurishlarini maqtab, ko'klarga ko'tarishdan iborat, desak xato bo'lurdi. Unda inson harakterlari ham juda yaxshi tavsiflangan. Xususan, Temurning shaxsiy harakteri Sharafuddin Ali tomonidan zur mahorat bilan ko'rsatilgan. Muhammad Ali esa o'zbek tiliga ana shunday sahifalarni yuksak mahorat bilan akslantirgan. Ba'zi sahifalarda Temur faoliyati haqqoniy bayon qilingan va uni asoslashga urinishlar seziladi va uning mislsiz olamgirligi ko'rsatilgan bo'lsa, boshqa sahifalarda, chunonchi. Qizi Tag'ayshohning va o'g'li Jahongir mirzoning vafotlariga taalluqli sahifalarda sohibqiron insoniy zaifliklarga ega bo'lgan kishi ekanligi ham ko'rsatilgan. Lekin ikkala muallif Sharafuddin, Muhammad Ali ham Amir sohibqironning buyuk sherqalbligi, mislsiz qahramonligi, dovyurakligi va bahodurligini katta haqqoniy va mahorat bilan ko'rsatgan. Bu sahifalar o'quvchida zarracha shubha tug'dirmaydi. Va Temur siymosi ko'z oldimizda chekinmas, yengilmas va zabardast jangchi sifatida gavdalanadi.

Asarda nafaqat Temur siymosi, balki uning atrofidagi ba'zi bonqa shaxslarning siymolari ham yuksak mahorat bilan tasvirlangan. Masalan, sohibqironning egachin (opasi) Qutlug' Turkon og'o haqida qisqagina

ma'lumotlar keltirilgan bo'lsa ham, shu ma'lumotlarning o'zigina uni mushtipar va g'amho'r opa, nafis didli, idrokli va dono hamda jasur va vatanparvar ayol sifatida gavdalantiradi. Bu ayol tili bilan aytilgan bir necha og'iz so'zlarning o'zigina uning butun Eron va Turonda katta qudratga ega bo'lgan hamda xalqaro siyosatga kuchli ta'sir ko'rsata oladigan yuksak irodali hokima ayol bo'lganligini ko'rsatadi. Uning oti Turkon og'a bo'lganligi ham bejiz emasdek tuyuladi kishiga.

Amir Hoji Sayfuddin va amir Xusayn siymolari ham yuksak mahorat bilan tasvirlangan. Bularning birinchisi sohibqironning eng ishonchli do'sti va safdoshlaridan biri edi. Amir eng mas'uliyatli va og'ir vazifalarni farzandlaridan ham unga ko'proq ishonardi va yuklardi. U umrining oxirigacha sohibqironga sodiqligicha qoladi.

Bitiruv – malakaviy ishining ikkinchi bobi Sharofiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida Amir Temurning harbiy faoliyati yoritilgandir. Ikkinchi bobning 1-bandida Amir Temurning Movarounnahrni birlashtirish va xavfsizligini ta'minlash uchun ko'rashi bayon qilingan. 2-bandida esa, qo'shni mamlakat va o'lkalarning Amir Temur davlati tarkibiga kiritilishi o'rganilgan.

Temurning «uch yillik», «besh yillik» va «yetti yillik» yurish janglarida va boshqa bu atamalarga kirmagan urushlaridan oldiga qo'ygan maqsadi nima edi? degan savol tug'iladi. Odatda rus va sovet mualliflari bu savolga, maqsadi faqat boylik orttirish uchun olib borilgan bosqinchilik va qirg'inbarot urushlari edi, deb javob berib kelganlar. Masalaga yuzaki yondashganda shunday tuyulishi mumkin. Lekin 1385 yilgacha Temurning mamlakatlarni bosib olish niyati bo'lmaganligi aniq. O'sha yil boshida To'xtamishxonning Tabrizga bostirib kelib, shaharni vayron qilishi uning rejalariga qat'iy o'zgartirish kiritadi. Bundan bir necha yil avvalroq u «Xudo bitta bo'lganidek butun dunyoda podsho ham bitta bo'lishi kerak» degan

bo'lsada, bu fikrini u hech qachon to'la amalga oshirishga harakat qilmagan edi. Mazkur yilgacha olib borgan urushlari asosan yo turli vaqtlarda orttirgan dushmanlaridan o'ch olish, yoki aholiga zulm o'tkazayotgan hokimlarning tanbixini berish, yohud shar'iy farz deb hisoblangan diniy dushmanlar bilan olib borilgan gazavot urushlari edi. Gazavot urushlarini ham u faqat musulmonlarga nisbatan zulm o'tkazayotgan g'ayridinlarga qarshi olib borardi. Bu hol asarda o'z aksini topgan. Lekin To'xtamishning mazkur yurishlaridan so'ng u butun Eronni bosib, Oltin Urdaga qo'shib olishi xavfi tug'iladi. Shuning uchun Amir Temur Tuxtamishdan avval Eronni o'z mulkiga qo'shib olishga qaror qiladi. Eronni zabt etganidan so'ng umuman Hulugu mulkini tamoman zabt etish g'oyasi tug'iladi. Xaqiqatdan ham Hulugu mulkining asosiy qismi bo'lmish Eron va u mulkning ikkala poytaxti Tabriz va Sultoniya zabt etilganidan so'ng bu mulkning parchalari bo'lmish Iroq, Suriya va Sharqiy Anatuliyani qo'shib olmay iloji yuq edi. Chunki bu yerlarning hokimlari Temurning dushmanlariga panoh berib, yerlari Amirga nisbatan ig'vo va hujum plandarmi-bazasiga aylangan edi.

Temur harbiy yurishlarining yana bir sababi bor edi. Bu ham bo'lsa, Buyuk Ipak yo'lini bir mamlakatga birlashtirib, undagi xavfsizlikni ta'minlash edi. Sharafuddin bir necha marta Mo'g'uliston, Eron va Iroqda mahalliy hokimlarning farovonliga yoki karoqchilar kuchayganligi sababli karvonlar va hatto elchilar yurolmay qolganliklari va hujga ham borish xavfli bo'lib qolganligini aytadi.

Ushbu voqealar tarixini o'rganishda bevosita "Zafarnoma" asariga murojaat qilingan va kerakli ma'lumotlar olingan. Masalan, sohibqiron Amir Temurning 3 yillik, 5 yillik yurishlari, Hindistonga qilgan harbiy harakatlari bunga misol bo'ladi.

## **Xazrat sohibqiron uch yillik yarog'i bilan Eron sori borg'oni**

Bars yilda, torix yetti yuz sekson sekkizda (1386) sohibqironi gitisi ton Turondin Eron sori mutavajjih bo'ldi. Va xukm bo'ldikim, «Tavochilar viloyatlarga borib cherikka jar yetqursun!». Bu xukm bulg'ondin so'ng tavochilar yurub, cherikni jam' etib, dargohi oliyda kelturdilar. Ul hazrat cherik jam' bo'lg'ondin so'ng Sulaymonshohbekkim, Dovudbekning o'g'li erdi va Abbosbekni Movarounnahr viloyatlarini zabti uchun qo'ydikim, viloyatdin xabardor bo'lg'aylar. Va o'zi davlat bila saodat yuzini Eron sori qilib otlandi.

## **Sohibqiron Maxmud Sultonkim, Hinduston viloyatining podshosi erdi, urushqoni zikri**

Sohibqironi dinparvar himmat yuzini Hinduston sori qo'yub, har yergakim yetti, fath qildi, nechukkim yuqori zikr qilduq. Rabi' al-oxir oyining yettisida (17.12.1398) saodat va iqbol bila otlanib, o'ng qo'l va so'l qo'ldagi shahzodalar va beklar barcha otlanib, yasol tortib, yer yuzini cherik tutub, dushmang'a tavajjuh qilib yuridilar<sup>30</sup>.

Dushman soridin taqi Sulton Mahmudkim, Feruzshohning nabirasi erdi, Malluxon, Tag'ayxon va amir Ali hind sardorlari bila o'n ming otliq va qirq ming yayog' bila barcha mukammal, musallah shahardin chiqib yasol tortib turdilar. Va alarning e'timodlari (yuz yigirmi) fillari bila erdi.

Asarda XIV asrga xos bo'lgan boy geografik ma'lumotlar keltirilgan. Shunisi diqqatga sazovorki, Iroq va Sharqiy Anatuliyadan to hozirgi Xitoy markazigacha va Fors ko'rfazidan to Kama daryosi xavzasigacha bo'lgan joy, suv, kent, shahar, tog' va dovonlarning o'zbekcha (qarluqcha) nomlari keltiriladi. Bu esa uchala mo'g'ul ulusida ham XIV asrda chig'atoy turkiy tili tarqalganligidan dalolat beradi.

---

<sup>30</sup> Sharofiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma". T., "Sharq", 1997, 177-bet.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddas. Toshkent, "O'zbekiston", 1995.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, "Ma'naviyat", 2008, 172-bet.
3. I. Karimov. Barkamol avlod O'zbekiston kelajagining poydevori. T, 1997.
4. Sharofiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma". T., "Sharq", 1997. 381-bet.
5. Temur tuzuklari. Forschadan Alixon Sog'unij va Habibullaxon Karamatov tarjimasi. T., G'.G'ulom, 1991. 109-bet.
6. B. Ahmedov. Tarihdan saboqlar. T., "O'qituvchi", 1994.
7. Ye. Berezinov. Buyuk Temur. T., "Sharq", 1996.
8. Amir Temur va uning dunyo tarixidagi o'rni. (Buyuk sohibqiron Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag'ishlangan xalq ilmiy konferensiyasi ma'ruzalari bayoni). S., 1996.
9. T. Fayziyev. Temuriylar shajarasi. T., "Yozuvchi", 1995.
10. Sh. Karimov. R. Shamsutdinov. Vatan tarixi. T., 1997.
11. A. Muxammadjonov. O'zbekiston tarixi. T., "O'qituvchi", 1994.
12. Vamberi, Xermon. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. T., "Abadiyot va san'at" nashriyoti.
13. O'zbekistonning ta'lim to'g'risidagi qonuni. T, 1997.
14. Davlat ta'lim standartlari. T. 1999.

## **Mundarija:**

**Kirish.....**

**I-BOB. Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarining yaratilish va undagi tarixiy voqealar bayoni.....**

1.1.Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarining yaratilishi.....

1.2.Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida tarixiy voqealar bayoni.....

**II-BOB. Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida Amir Temur faoliyatining yoritilishi.....**

2.1.Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida Amir Temurning Movarounnahrni birlashtirish va xavfsizligini ta’minlash uchun ko’rashi bayoni.....

2.2.“Zafarnoma” asarida qo’shni mamlakat va o’lkalarining Amir Temur davlati tarkibiga kiritilishi bayoni.....

**III-Bob: “Amir Temur shaxsini o’rganishda Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarining roli va ahamiyati” mavzusini tarix darslarida o’rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarda foydalanish usullari**

3.1.Mavzuni o’tishda noan’anaviy usullardan foydalanish.....

**Xulosa.....**

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.....**